

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYA-IQTISOD FAKULTETI

“MOLIYA” KAFEDRASI

BAHRIDDINOVA MALOHAT BAHRIDDIN QIZI

**«O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BUDJET JARAYONINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI»**

**5230600 -“Moliya”- ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun
yozilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

«Moliya» kafedrası mudiri

_____ i.f.n.,dots. O.Komolov

«_____»_____201_ y.

Ilmiy rahbar: _____ dots. Sattorov B.

TOSHKENT - 2017

MUNDARIJA

betlar

KIRISH.....	3
1-BOB BUDJET JARAYONI BOSQICHLARI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-HUQUQIY VA TASHKILIY ASOSLARI	6
1.1 Budjet jarayonini tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari.....	6
1.2 O'zbekiston Respublikasi budjet jarayonining olib borilishida tegishli davlat organlarining asosiy vazifalari.....	15
1- bob bo'yicha xulosa.....	21
2-BOB O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUDJET LOYIHASINI TUZISH VA UNING IJRO ETILISHINING AMALDAGI HOLATI.....	23
2.1 O'zbekiston Respublikasi budjet loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash	23
2.2 Budjet ijrosi va uning nazorati tahlili.....	32
2- bob bo'yicha xulosa.....	43
3- BOB O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUDJET JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA TADBIRLARI.....	45
3.1 O'zbekiston Respublikasi budjet jarayonini takomillashtirishda ilg'or xorij tajribasidan foydalanish.....	45
3.2 Budjet jarayonini takomillashtirishda budjet nazoratini samarali tashkil etish.....	50
3- bob bo'yicha xulosa.....	55
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	57
FOYDALANIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	60

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Bizga ma'lumki, o'tgan yillar mobaynida olib borilgan iqtisodiy islohotlar mamlakatimiz iqtisodiy barqarorligi qay darajada ekanligini ko'rsatib berdi. Bu borada, davlat moliyasi tizimining puxta ishlab chiqilganligi o'z natijalarini berdi. Xususan, Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev "Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat budjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash – eng muhim ustuvor vazifamizdir."¹-deya ta'kidlab o'tdilar. Ayniqsa, o'tgan yillar mobaynida mamlakatimizda zamonaviy Davlat budjetining barpo etilganligi, budjet tizimi faoliyatini ta'minlashda budjet loyihasini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijro etilishini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinishiga tegishli bo'lgan davlat hokimiyat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari hamda budjet jarayoni ishtirokchilarining faoliyati samarali tashkil qilinganligi budjet jarayoni munosabatlarini ta'minlab berdi. Biroq, budjet jarayonini tashkil qilishda ko'zga ko'rinarli natijalarga erishgan bo'lsada, shu bilan birga budjet jarayonini tashkil qilishda ayrim muammolar ham mavjud. Mavjud muammolarni echimini topish, budjet jarayonini tashkil qilishda ishtirok etuvchi organlar faoliyatini yanada takomillashtirish, budjet loyihasini shakllantirish va ijro etishda budjet nazoratini samarali tashkil etish bugungi kunning dolzarb mavzusi hisoblanadi. Shu bois, budjet jarayonini tashkil etishda O'zbekiston Respublikasi budjet jarayonining asosiy ishtirokchilari

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. 16.01.2017-y. Xalq so'zi gazetasi.

faoliyati hamda samarali budjet nazorati o'rnini va ahamiyatini oshirish mavzuning dolzarbligini o'zida aks ettiradi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari. **Bitiruv malakaviy ishning maqsadi** bo'lib, mamlakatni modernizatsiya qilish jarayonida budjet jarayonini tashkil etishda vakolatli davlat organlari faoliyatini, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda mahalliy hokimyat organlarining budjet jarayonining tashkil etishdagi ishtiroki shuningdek, O'zbekiston Respublikasi budjet jarayonida budjet nazoratini samarali tashkil etishning ahamiyatini oshirish yuzasidan xulosa hamda tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda, **bitiruv malakaviy ishida quyidagi vazifalar belgilangan:**

- budjet jarayonini tashkil qilishning nazariy-huquqiy asoslarini o'rganish;
- davlat budjeti jarayoni tashkil etishda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tanishish;
- budjet jarayonini tashkil etishda ishtirok etuvchi davlat organlarining asosiy vazifalarini ko'rib chiqish;
- budjet jarayonining davlat budjet loyihasini tuzish hamda uni tasdiqlash bosqichini tahlil qilish va unda ishitok etuvchi vakolatli davlat organlari faoliyatini o'rganib chiqish;
- budjet loyihasini ijro etish bosqichini tahlil qilish;
- budjet jarayonini takomillashtirishda ilg'or xorij tajribasi tahlilini o'rganish;
- budjet jarayonini amalga oshirishda budjet nazoratining ahamiyatini oshirish yo'llarini ko'rib chiqish va hokazo.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti bo'lib, budjet jarayoni hamda budjet ijrosida ishtirok etuvchi O'zbekiston Respublikasi tegishli organlari, jumladan Moliya vazirligining budjet jarayonidagi faoliyati hisoblanadi.

Bitiruv-malakaviy ishining predmeti. O'zbekiston Respublikasida budget jarayonini tashkil qilish hamda O'zbekiston Respublikasi budget loyihasini tuzish va ijro etishda yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Bitiruv-malakaviy ishining nazariy-amaliy ahamiyati bo'lib, bitiruv malakaviy ishida budget jarayoni nazariy jihatdan ochib berilganligi ya'ni budget jarayoning nazariy hamda huquqiy asoslari, uning ishtirokchilari va amaliy jihatdan budget jarayonining budget loyihasini tuzish hamda uni ijro etish va ushbu jarayonda faoliyat ko'rsatuvchi vakolatli organlar vazifalari yoritilganligi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Ushbu bitiruv-malakaviy ishi o'z ichiga kirish, 3 ta bob, xulosa va takliflar, hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini qamrab olgan.

Ushbu bitiruv malakaviy ishining 1-bobida O'zbekiston Respublikasining budget jarayonini nazariy-huquqiy jihatlari va unda ishtirok etuvchi davlat organlari va mahalliy hokimyatlariga bag'ishlangan 2 ta paragraf va 1-bob bo'yicha xulosa keltirilgan.

Bitiruv malakaviy ishining 2-bobi O'zbekiston Respublikasining budget loyihasini tuzish va uni ijro etilishining amaldagi holatiga bag'ishlangan 2 ta paragrafdan va 2-bob yuzasidan keltirilgan xulosadan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining 3-bobi O'zbekiston Respublikasi budget jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlariga bag'ishlangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi budget jarayonini takomillashtirishda ilg'or xorij tajribasidan foydalanish va budget nazoratini samarali tashkil etish deb nomlangan 2 ta paragrafdan hamda 3-bob bo'yicha xulasadan tashkil topgan.

Bitiruv malakaviy ishining umumiy hajmi 63 betni tashkil etib, unda 2 ta jadval, 7 ta rasm keltirilgan.

1-BOB. BUDJET JARAYONI BOSQICHLARI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-HUQUQIY VA TASHKILIY ASOSLARI

1.1. Budjet jarayonini tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari

Moliya tizimining asosini davlat budjeti tashkil etadi. U bir tomondan resurslarni hal qiluvchi qismini o'zida jamlaydi. Ikkinchi tomondan esa barcha moliya bo'g'inlari va muassasalarining o'zaro aloqadorligini ta'minlaydi, ularning faoliyatini muvofiqlashtirib boradi. Budjet iqtisodiyotiga ishlab chiqarish jarayoniga xo'jalik hayotiga davlat tomonidan ta'sir o'tkazish vositasidir hamda u davlat iste'molining moliyaviy asosi sifatida namoyon bo'ladi va ijtimoiy monitorlash uchun foydalaniladi. O'zbekiston Respublikasining budjet tizimi davlat budjeti amal qilishining tashkiliy shaklidir. Bunday tizim davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda asosiy dastaklardan biri hisoblanadi. Budjet tizimi Respublika barcha budjetlarining jamlanmasi bo'lib, u davlatning siyosiy va iqtisodiy tizimlariga, respublikaning ma'muriy bo'linishiga asoslanadi. Budjet tizimining iqtisodiy, ijtimoiy va tashkiliy tamoyillari, tuzilishi, unda birlashib ketadigan budjetlarning o'zaro aloqadorligini respublika budjet qurilmasini belgilaydi. Hozirgi davrda budjetni ko'rib chiqish, tuzish, hamda budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish hozirgi davrning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. Budjet daromadlari hamda xarajatlarini mutanosib olib borish esa joylardagi moliya boshqarmalari, bo'limlari hamda Moliya Vazirligining oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish, iqtisodiy qonunlarni bir me'yor doirasida amal qilishi ko'p jihatdan davlatni moliyaviy siyosatini asosiy bo'g'ini Davlat budjetiga bog'liqdir. Davlat budjeti o'zida davlat daromadlari va xarajatlarni mujassamlashtirgan moliyaviy rejadir. Demak xalq xo'jaligini butun tarmoqlarida, xususan noishlab chiqarish tarmoqlari (xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, mudofaa va h.k.)da davlat budjetini roli beqiyosdir. Shu o'rinda mamlakatimiz prezidenti Sh. M. Mirziyoyev quyidagi so'zlarini ta'kidlab o'tish o'rinlidir: "Albatta, Davlat budjeti o'lchovsiz emas, mablag'larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va


oqilona ishlatishni ta'minlash zarur. Bu – hammaga ravshan va rad etib bo'lmaydigan haqiqat"². Jumladan, 2009-2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturining o'z vaqtida qabul qilinishi xususida birinchi prezidentimiz Islom Karimov: “Dastur o'ziga qamrab olgan, o'z vaqtida qabul qilingan hujjatlarda avvalo mamlakatimiz moliyaviy-iqtisodiy, budjet, bank-kredit tizimining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalariga yordam ko'rsatish, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarning puxta ishlab chiqilgani o'zining amaliy samarasini berdi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz”³- deya ta'kidlab o'tgan edilar.

Budjet mablag'larini sarflanishini to'g'ri rejalashtirish, undan samarali foydalanish mamlakatimiz ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy ahvoriga bevosita ta'sir ko'rsatib bu budjet tizimi hamda jarayonini qayta ko'rib chiqish ahamiyatini oshiradi. Avvalambor, budjet jarayoniga ta'rif beradigan bo'lsak, “Budjet jarayoni-davlat budjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun hujjatlari bilan tartibga solingan jarayon.”⁴ Budjet jarayonining mazmuni mamlakatning davlat va budjet tuzilishi, tegishli organlar va yuridik shaxslarning budjet huquqlari bilan belgilanadi hamda budjet jarayonining mazmunini belgilashda budjetni tuzish tartibi, uning normativ-huquqiy va tashkiliy asosi, mamlakat budjetini tuzishning nazariy va metodologik masalalari muhim rol o'ynaydi.

²O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishining asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi.16.01.2017.

³I.A.Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma'ruzasi. 2010 yil 29 yanvar.

⁴O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RQ-360-son. 26.12.2013. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y. №52-I-son



1-rasm. Budjet jarayoni bosqichlari⁵

Budjet jarayoni, odatda, budjet faoliyatining quyidagi to'rt bosqichini o'z ichiga oladi (1-rasm):

- budjet loyihasini tuzish (ishlab chiqish, yaratish);
- budjetni ko'rib chiqish (muhokama qilish) va tasdiqlash;
- budjetni ijro etish;
- budjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash.

Budjet jarayonining davomiyligi yuqoridagi to'rt bosqichning barchasidan iborat bo'lib, odatda, uch yilga yaqin davom etadi. Buning bir yilga yaqini budjet loyihasini ishlab chiqish (yaratish, tuzish), uni muhokama qilish (ko'rib chiqish) va tasdiqlash (qabul qilish)ga, bir kalendar yili (1 yanvardan 31 dekabrgacha) budjetni ijro etishga (budjet davri) va sakkiz oyga yaqini budjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlashga va uni tasdiqlashga to'g'ri keladi.

Budjet jarayonini tashkil qilishda quyidagi tamoyillarga rioya qilinadi:

⁵Malikov T.S., Haydarov N.H. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma / - T.: "IQTISOD MOLIIYA", 2008, 84 b.

1. Yagonalik-yagona huquqiy baza, yagona budjet tasnifi, O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti va hududlar budjetlarini tuzishda statistik axborot tuzish uchun zarur bo'lgan budjet hujjatlari yagonaligi;

2. Har bir qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyati organi budjet jarayonining mustaqilligi-o'z daromadlari manbalari va ulardan foydalanish yo'nalishlarini belgilash huquqi bilan ta'minlanadi;

3. Balans usuli-jami budjetlarning daromadlari va xarajatlari o'rtasida, shuningdek, moddiy va moliyaviy ko'rsatkichlar o'rtasida to'g'ri nisbatlarni belgilashni nazarda tutadi.

Budjet jarayoni budjetni rejalashtirishdan boshlanadi. Budjetni rejalashtirish davlat moliyaviy siyosati talablariga muvofiqlashtirilgan moliyaviy rejalashtirishning muhim tarkibiy qismini tashkil qiladi. Bunday rejalashtirishning iqtisodiy vazifasi turli darajadagi budjetlar va budjetdan tashqari jamg'armalarni tuzish va ijro etish jarayonida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning umummilliy dasturlari asosida yalpi ichki mahsulot va milliy daromad qiymatini moliya tizmi bo'g'inlari o'rtasida markazlashtirilgan tarzda qayta taqsimlash proporsiyalarini to'g'ri belgilashdan iboratdir.

Budjet loyihasini tuzish budjet jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Davlat budjetining loyihasini tuzish (yaratish, ishlab chiqish) bo'yicha ishlar yangi budjet yilining boshlanishidan ancha oldin, masalan, O'zbekistonda 7 oy oldin boshlanadi. Uning loyihasini tuzish ijroiya hokimiyati organlari, odatda, Moliya vazirligi, G'aznachilik tomonidan amalga oshiriladi.

Ba'zi bir mamlakatlarda budjet loyihasini tuzish davlat ijroiya hokimiyati boshlig'i (rahbari)ning kelgusi yilga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining umumiy yo'nalishlari bo'yicha chiqishidan (ma'ruzasidan) boshlanadi. Masalan AQSh da prezidenti amerika xalqiga Budjetnoma bilan murojaat qilib, unda pul-moliya siyosatining asosiy vazifalari, kelgusi budjet yili va navbatdagi to'rt yil uchun federal budjet daromad va xarajatlarining hukumat bahosi shakllantiriladi⁶.

⁶Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya.-T: "Sharq",2010y., 470-bet.

Budget loyihasini tuzishdan oldin O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan muddatlarda kelgusi moliya yiliga tegishli budgetlar va davlat maqsadli jamg'armalari tayyorlash uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari, davlat maqsadli fondlarini taqsimlovchi organlariga, hamda budgetdan ajratiladigan mablag'larni olishga buyurtmalar tuzish uchun respublika budgetidan moliyalashtiriladigan budget mablag'lari oluvchilariga budget so'rovi yuborilishi kerak.

Davlat budgetining va davlat maqsadli jamg'armalari budgetlarining loyihasini tuzish:

- Budget so'rovini tuzish tartibini yuborilishini;
- Budget so'rovlarini hamda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlarini tayyorlash va taqdim etishini;
- Budget so'rovlarini ko'rib chiqish va jamlashni;
- Budgetnomani ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi har yili 15 aprelga qadar kelgusi davr uchun budget so'rovini tuzish tartibini O'zbekiston Respublikasining respublika budgeti loyihasini tayyorlash uchun – budget mablag'larini taqsimlovchilarga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirligi Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga yuboradi⁷.

Budgetni muhokama qilish (ko'rib chiqish) va tasdiqlash (qabul qilish) bosqichida mamlakatning oliy ijroiya organi – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ma'qullanganidan so'ng Davlat budgetining loyihasi muhokama qilish (ko'rib chiqish) va tasdiqlash (qabul qilish) uchun qonunchilik organi bo'lgan Oliy Majlisga taqdim etiladi. Odatda, budgetning loyihasi Oliy Majlisning har bir palatasida (oldin quyi palata bo'lgan Qonunchilik palatasida va yuqori palata sanalgan Senatda) alohida-alohida muhokama qilinadi.

Mamlakat parlamentining har bir palatasida aniq budget masalalari bilan

⁷O. Ga'ybullayev, U. O'roqov. O'zbekiston Respublikasida budget tizimi va jarayoni.-T: "Baktria -Press", 2016 y., 95-bet

shug'ullanuvchi maxsus qo'mitalar va komissiyalar faoliyat ko'rsatadi. Ular budjet loyihasining tegishli moddalarini atroflicha tahlil qiladilar, zaruriy hollarda o'zgartirishlarni taklif qiladilar va tushuntiruv xati bilan birgalikda budjetning loyihasiga xulosa beradilar.

Oliy Majlisning har bir palatalarida budjet loyihasi qabul qilinganidan so'ng, har ikki palata o'rtasida budjet loyihasi bo'yicha kelishmovchiliklar mavjud bo'lmasa, mamlakat parlamentining budjet to'g'risidagi umumiy qarori qabul qilinadi. Agar palatalar o'rtasida budjet loyihasi bo'yicha kelishmovchiliklar vujudga kelsa, har ikki palataning vakillaridan iborat bo'lgan muvofiqlashtiruvchi komissiya ularni bartaraf etishi kerak.

Parlamentda budjet loyihasini muhokama etish (ko'rib chiqish)da budjet tashabbuskorligining mavjudligi muhim ahamiyatga egadir. Budjet tashabbuskorligi deyilganda parlament a'zolarining hukumat tomonidan taqdim etilgan budjet loyihasiga nisbatan o'zgartirishlar kiritish huquqi nazarda tutiladi

Budjetni ijro etish bosqichida budjetni ijro etish uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tasdiqlagandan va mamlakat Prezidenti imzolagandan so'ng boshlanadi. O'zbekiston hukumati quyi ijroiya organlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari bilan muvofiqlashtirilgan holda budjet ijrosi tartibini tashkil qiladi. Budjet jarayonining bu bosqichi o'z ichiga budjetning daromadlar va xarajatlar qismining bajarilishini qamrab oladi.

Budjetni ijro etishning eng muhim vazifasi ikkiyoqlama xarakterga ega bo'lib, u bir tomondan, soliqlar va boshqa to'lovlarning yoppasiga hamda har bir manbalar bo'yicha to'liq va o'z vaqtida tushib turishini ta'minlashni, ikkinchi tomondan esa, budjet tasdiqlangan yil uchun shu moliyaviy yil davomida budjetda tasdiqlangan summalar chegarasida barcha tadbirlarni moliyalashtirilishni taqozo etadi.

Budjet ijrosi davomida davlat ishlab chiqarishni intensivlashtirish va samaradorligini oshirish hisobidan resurslarning oshishidan, mablag'larni sarflashda iqtisod rejimiga rioya qilinishidan, solikli daromadlarning to'liq jalb qilinishidan manfaatdordir.

Davlat budjetining ijrosini ta'minlashda quyidagi masalalarning hal etilishiga jiddiy e'tibor bermoq lozim:

- ✓ Davlat budjeti daromadlarini shakllantirish;
- ✓ Davlat budjeti mablag'larini sarflash;
- ✓ Qabul qilingan davlat budjeti bo'lmagan taqdirda budjetni ijro etish;
- ✓ Budjetdan ajratiladigan mablag'larga o'zgartirishlar kiritish;
- ✓ Davlat budjetini belgilangan parametrlar doirasida ijro etish;
- ✓ Davlat budjeti daromadlari va xarajatlarini boshqarish;
- ✓ Davlat budjetining kassa ijrosini ta'minlash;
- ✓ Davlat budjeti ijrosini nazorat qilish.

Davlat budjetining ijrosini ta'minlash jarayonida uning daromadlarini shakllantirish O'zbekiston Respublikasining "Budjet tizimi to'g'risida"gi Qonuni, Soliq kodeksi, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda hisoblab chiqarilgan, biroq joriy yilning 31 dekabrigacha davlat budjetiga to'lanmagan daromadlar kelgusi yilda Davlat budjetiga o'tkazilishi kerak.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, davlat budjeti moliya yili boshlanganidan keyin qabul qilingan holda xarajatlarning umumiy summasi moliya yili davomida qabul qilingan davlat budjeti ko'rsatkichlariga muvofiqlashtirilishi kerak.

Budjet jarayonining so'nggi bosqichi, ya'ni budjetning ijrosi to'g'risidagi hisobot va uni tasdiqlashda davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobot budjet ijrosining yakuni (natijalari)ni o'zida ifoda etadi. Shu munosabat bilan Respublika budjetidan moliyalashtiriladigan budjet mablag'lari oluvchilar budjetdan ajratiladigan mablag'lardan hisobot davrida foydalanganlik to'g'risidagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga shu vazirlik belgilagan muddatlarda taqdim etishi kerak. Shunga mos ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan hamda mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan budjet mablag'lari oluvchilar budjetdan ajratiladigan mablag'lardan hisobot davrida foydalanganlik to'g'risidagi hisobotlarni tegishli moliya organlariga O'zbekiston

Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan muddatlarda taqdim etmoqlari lozim.

Davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Shunga mos ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va tegishli mahalliy hokimiyat vakillik organlari tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.⁸

Budjet munosabatlarining tashkiliy-huquqiy asoslari 2002-yildan boshlangan va bugungi kunga qadar muvaffaqiyatli amalga oshirib kelinayotgan "Davlat moliyasini tizimini isloh qilish" loyihasi doirasida budjetdan moliyalashtirish, budjet tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirish, g'aznachilik orqali ular xarajatlari to'lovini amalga oshirish tartiblariga bevosita taalluqli me'yoriy- huquqiy hujjatlar ham takomillashib bormoqda. Budjet munosabatlarining qonuniy-huquqiy va me'yoriy asoslarini tashkil qiluvchi hujjatlar qatorida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

- O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, xususan:
- 100-moddaga muvofiq mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, budjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish kiradi;
- 122-modda O'zbekistonning davlat budjeti Respublika budjetidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan va mahalliy budjetlardan iborat ekanligini belgilaydi.
- "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonun-hududlarning moliyaviy resurslarini, mahalliy hokimiyat organlarining budjetga doir huquqlarini, mahalliy hokimiyat organlarining budjetga doir huquqlarini, mahalliy budjetlarning daromadlari va sarf -xarajatlarini va boshqalarni belgilaydi.

⁸Malikov T.S., Haydarov N.H. Byudjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma / - T.: "IQTISOD MOLIIYa", 2008, 84 b.

- Soliq kodeksi 23-moddasi, unda umumdavlat va maxsus qismida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha har birining elementlari, ularni hisoblab chiqarish va budjetga to'lash tartibi belgilangan.

- O'zbekiston Respublikasi "Budjet tizimi to'g'risida" gi 2000-yil 14-dekabrda qabul qilingan 158-II Qonuni.

- O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi;

- Oliy Majlis tomonidan har yili qabul qilinadigan "Davlat budjeti to'g'risida"gi qarorlar hamda ular asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan keyingi moliya yili uchun qabul qilinadigan "O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida" gi qarorlari;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat budjeti g'azna ijrositizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2007-yil 28-fevraldagi PQ-594-son Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2010-yil 20-avgustdagi 65-son buyrug'I bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi budjet tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma";

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida" 1999-yil 3-sentabrdagi 414-son Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiining "Budjet intizomiga rioya qilinishi ustidan nazoratni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida " 1999-yil 11-fevraldagi 66-son Qarori;


- Boshqa hujjatlar.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotining ko'plab soha va tarmoqlarida keng qamrovli iqtisodiy islohatlar olib borilayotgan va ularning natijalari iqtisodiy ko'rsatkichlarga o'zining ta'sirini ko'rsatayotgan bir davrda davlat budjeti qonunchiligini mustahkamlab va takomillashtirib borish davlat moliyasi tizimining isloh qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

1.2. O'zbekiston Respublikasi budget jarayonining olib borilishida tegishli davlat organlarining asosiy vazifalari

Eng umumiy tarzda, budget jarayonining ishtirokchilari quyidagilar hisoblanadi:

- Mamlakat Prezidenti va qonunchilik (vakillik) hokimiyat organlari;
- Ijroiya hokimiyat organlari (mamlakat sub'ektlarining yuqori mansabdor shaxslari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari rahbarlari, moliya organlari, budget daromadlarini undirish bilan shug'ullanadigan organlar va
- boshqa vakolatli organlar);
- Pul-kredit tizimini tartibga solish organlari;
- Davlat va mahalliy nazorat organlari;
- Davlat nobudjet fondlari;
- Budget mablag'larini Bosh taqsimlovchilar, taqsimlovchilar va boshqalar



2 rasm. Budget jarayonini amalga oshiruvchi organlar⁹

⁹O'zbekiston Respublikasi "Budget kodeksi"ga asosan talaba tomonidan tayyorlanadi

Mamlakat budjet tizimini boshqarish sohasida tegishli hokimiyat organlari alohida vakolatlarga egadir. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining budjet tizimini boshqarish sohasidagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

- Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari, shuningdek soliq va budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalarini ishlab chiqish jarayonini tashkil etadi hamda muvofiqlashtirib boradi;

- Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari, shuningdek soliq va budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalarini ko'rib chiqish hamda tegishli xulosa taqdim etish uchun O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga yuboradi;

- Budjetnoma loyihasini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;

- Budjetnomani O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga taqdim etadi;

- Davlat boshqaruvi organlarining Davlat budjetini va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarini ijro etish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi hamda nazorat qiladi;

- Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni har chorakda ko'rib chiqadi;

- O'tgan moliya yili uchun Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tashqi audit o'tkazish hamda baholash uchun O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga yuboradi;

- Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga taqdim etadi;

- Budjet kodeksining 144, 145 va 149-moddalarida nazarda tutilgan hollarda moliya yili mobaynida Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari parametrlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqadi;

- O'zbekiston Respublikasi respublika budgetining qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zahira jamg'armasi mablag'laridan foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qiladi.
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq budget sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin (O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksi 25-modda).

Budget jarayonida Hisob Palatasining vazifalari quyidagilarni qamrab oladi:

- Davlat budgeti va davlat maqsadli jamg'armalari budgetlari, shuningdek soliq va budget siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga xulosa taqdim etadi;
- Davlat budgetining va davlat maqsadli jamg'armalari budgetlarining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobot bo'yicha tashqi audit va baholashni amalga oshiradi hamda ular yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga xulosa taqdim etadi;
- Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda banklarning budget tizimi budgetlari daromadlari va xarajatlari moddalarining maqsadli ijrosini boshlang'ich ma'lumotlar bo'yicha nazorat qilish imkonini beruvchi axborot tizimlari va resurslariga kirish imkoniyatiga ega bo'ladi;
- Davlat budgeti va davlat maqsadli jamg'armalari budgetlari daromad qismining ijrosi yuzasidan monitoring o'tkazadi;
- budget tizimi budgetlari mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.
- O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi qonun hujjatlariga muvofiq budget sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin (O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksi 26-modda) .

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati organlari va joylardagi davlat hokimiyati organlari ham budget tizimini boshqarish sohasida bir necha vakolatlarga ega. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i

Kengesi va mahalliy hokimiyat vakillik organlari uchun bu borada quyidagi vakolatlarni xosdir:

- tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi budgetini va mahalliy budgetlarni qabul qilish, shuningdek ularning ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tasdiqlash;

- qonun hujjatlariga muvofiq mahalliy budgetga tushadigan mahalliy soliqlar, yig'imlar va to'lovlar miqdorlarini hamda ular bo'yicha imtiyozlarni belgilash;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi va tegishli hokimiyatlar esa:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi budgeti va mahalliy budgetlar loyihalarini tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va mahalliy hokimiyat vakillik organlari qabul qilishi uchun taqdim etish hamda ularning ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tuzish;

- Tegishli budget loyihasini ishlab chiqish va uni ijro etish jarayonini tashkil etadi hamda muvofiqlashtirib boradi;

- Budget so'rovi olinishiga qarab tegishli budgetlarning loyihalarini tuzish to'g'risida qarorlar qabul qiladi, ularni tayyorlash tartibi va muddatlarini belgilaydi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi budgeti loyihasini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlari, tumanlar va shaharlar budgetlari loyihalarini tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlariga ko'rib chiqish va qabul qilish uchun taqdim etadi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlarining qarorlariga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi budgeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlari, tumanlar va shaharlar budgetlari parametrlarini tasdiqlaydi;

- Budget kodeksining 146-148-moddalarida nazarda tutilgan tartibda moliya yili mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi budgeti, viloyatlar va Toshkent

shahar mahalliy budjetlari, tumanlar va shaharlar budjetlari parametrlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqadi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari, tumanlar va shaharlar budjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlariga tasdiqlash uchun taqdim etadi;

- Davlat budjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlariga tushumlar to'liq va o'z vaqtida tushishi ustidan nazoratni tashkil etadi;

- Budjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni tashkil etadi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining va Toshkent shahri shahar budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarining qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan vakolatlar bilan bir qatorda tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlari va Toshkent shahri shahar budjetining zahira jamg'armalari mablag'laridan foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qiladi.

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlari qonun hujjatlariga muvofiq budjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin (O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi 28-modda).

O'z navbatida, mamlakat budjet tizimini boshqarishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi muhim rol o'ynab, u bu sohada quyidagi vakolatlarga egadir:

- Davlat budjeti loyihasini tayyorlash;

- Davlat budjeti mablag'larining tushumi va sarfi tartibini belgilash hamda ular ustidan nazoratni amalga oshirish;

- Respublika budjetining xarajatlarini amalga oshirish;
- Budjet tashkilotlarining xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini ruyxatdan o'tkazish;

- Budjet mablag'lari oluvchilarning Davlat budjeti mablag'laridan foydalanishini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni, shuningdek umummajburiy tusdagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish;

- Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Hududiy moliya organlarivazifalari quyidagilardan iborat:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari, tumanlar va shaharlar budjetlari loyihalarini tayyorlaydi hamda ularni tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklariga ko'rib chiqish uchun kiritadi;

- Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni ularning manbalari kesimida to'liq va o'z vaqtida tushishi ustidan monitoringni amalga oshiradi;

- Tegishli budjetning ijro etilishi jarayonida unga tushumlarni ko'paytirish bo'yicha qo'shimcha zahiralarini aniqlaydi;

- Budjet tashkilotlariga va budjet mablag'lari oluvchilarga ular uchun nazarda tutilgan budjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmlarini yetkazadi;

- Budjet tashkilotlarining xarajatlar smetalari va shtat jadvallarini hamda budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalarini, shuningdek ularga kiritilgan o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazadi;

- Budjet kodeksining 146 - 148-moddalarida nazarda tutilgan tartibda tegishli budjetlar parametrlariga moliya yili mobaynida o'zgartirishlar kiritadi;

- Tegishli budjetlarning mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- Yuqori turuvchi moliya organlariga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar

hokimliklariga tegishli budjetning ijrosi to'g'risida har choraklik hisobotlarni taqdim etadi;

- Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar xarajatlarini maqbullashtirishni amalga oshiradi;

- tegishli budjetlar ijrosining budjet hisobini yuritadi;

- mahalliy davlat hokimiyati organlarining tegishli budjetlar daromadlari va xarajatlari balanslilikiga ta'sir ko'rsatuvchi normativ-huquqiy hujjatlarini moliyaviy va iqtisodiy ekspertizadan o'tkazadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari moliya boshqarmalari ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan vakolatlar bilan bir qatorda:

- Davlat budjeti daromadlari prognozini davlat soliq xizmati organlari va bojxona organlariga har chorakda tegishli ma'muriy-hududiy birliklar bo'yicha yetkazadi;

- budjet ssudalarini beradi.

- Hududiy moliya organlari qonun hujjatlariga muvofiq budjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin. (BK.30-modda)¹⁰.

Umuman olganda jarayonida ishtirok etuvchi vakolatli davlat organlari o'zlarining qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarini o'z vaqtida hamda belgilangan me'yoriy normativlar asosida to'g'ri ado etishlari bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjet jarayonini tashkil etishadi.

I bob bo'yicha xulosa

Budjet jarayoni — Davlat budjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek Davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun hujjatlari bilan tartibga solingan jarayoni.

Budjet jarayoni, odatda, budjet faoliyatining quyidagi to'rt bosqichini o'z

¹⁰O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi

ichiga oladi:

- budjet loyihasini tuzish (ishlab chiqish, yaratish);
- budjetni ko'rib chiqish (muhoqama qilish) va tasdiqlash;
- budjetni ijro etish;
- budjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash.

O'zbekiston Respublikasining budjet jarayoni davlat budjet loyihasini tuzishdan boshlanadi. Budjet loyihasini tuzish budjet jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanib, davlat budjetining loyihasini tuzish (yaratish , ishlab chiqish) bo'yicha ishlar yangi budjet yilining boshlanishidan 7 oy oldin boshlanadi va budjet jarayonining so'nggi bosqichi, ya'ni budjetning ijrosi to'g'risidagi hisobot va uni tasdiqlashda davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobot budjet ijrosining yakuni (natijalari)ni o'zida ifoda etadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida budjet jarayonini tashkil etishda davlat organlari faoliyatini takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqish, me'yoriy-huquqiy qonun hujjatlarini davr talabiga moslashtirib, rivojlantirib borish budjet jarayonining samarali ijrosini ta'minlashga o'z hissasini qo'shadi.

Ushbu bobda biz O'zbekiston Respublikasi budjet jarayoni qonun hujjatlarida belgilangan vakolatli davlat organlarining, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, hamda maxsus organlar, jumladan Moliya vazirligi, Davlat Soliq Qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Bojxona Qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va O'zbekiston Respublikasi G'aznachiligining budjet jarayoniga tegishli vazifalarini to'laqonli ado etishlari orqali yuzaga kelishini o'rganib chiqib, samarali budjet jarayonini tashkil etish uchun budjet tizimida vujudga kelayotgan muammolar va ularning yechimlarini hisobga olgan holda budjet qonunchiligini takomillashtirib borish, budjet jarayonida ishtirok etuvchi barcha vakolatli davlat organlari vazifalarini zamon talablariga moslashtirib borish, butun mamalakat miqyosida budjet jarayonini qamrab oluvchi mahalliy hokimyat organlari faoliyatida budjet jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir etuvchi muammoli masalalarni bartaraf etish yo'llarini o'rganib chiqish kerak degan xulosaga keldik.

2-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUDJET LOYIHASINI TUZISH VA IJRO ETILISHINING AMALDAGI HOLATI

2.1. O'zbekiston Respublikasi budjet loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash

Mamlakat aholisini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning ehtiyojlarini talab darajasida qondirishda, ilmiy-texnika jarayonini fan va madaniyatni rivojlantirishda, mamlakat mudofaasini saqlashda davlat budjeti asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti loyihasini tuzishga doir ishlar O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti loyihasini tuzishga doir ishlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan muvofiqlashtiriladi va amalga oshiriladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, tegishli hokimiyatlar moliya boshqarmalari (bo'limlari) Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar loyihalarini tuzishga doir ishlarni muvofiqlashtiradi va amalga oshiradi.

Davlat budjet loyihasini tuzish jarayoni O'zbekistonning amaldagi budjet qonunchiligi normalarida belgilab qo'yilgan quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

- Budjet so'rovini jo'natish;
- Tegishli hududlar budjetlari hamda maqsadli davlat jamg'armalari so'rovlari va loyihalarini berish;
- Davlat budjeti va budjetnomalari loyihasini tayyorlash.

O'zbekiston Respublikasining "Budjet tizimi to'g'risida"gi qonunning 25 moddasiga muvofiq:

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan muddatlarda kelgusi moliya yiliga tegishli budjetlar va davlat maqsadli jamg'armalari loyihalarini tayyorlash uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarga budjetdan ajratiladigan mablag'larni olishga buyurtmalar tuzish uchun respublika budjetidan moliyalashtiriladigan budjet mablag'lari oluvchilarga budjet so'rovi yuboradi.

Budjet so'rovi-kelgusi davr uchun budjetdan ajratiladigan mablag'larni olishga bo'lgan ehtiyojini asoslashni nazarda tutuvchi hujjat bo'lib, u quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

1) Budjet tashkiloti, budjet mablag'lari oluvchi va budjet mablag'larining taqsimlovchining budjet tizimi budjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq faoliyatining miqdor va sifat ko'rsatkichlarini o'z ichiga oluvchi, o'tgan yilda erishilgan natijalar va joriy yilda kutilayotgan natijalar to'g'risidagi tahliliy hisobot;

2) Xarajat majburiyatlarining ularni kiritish (ijro etish) uchun asos bo'ladigan hamda moliyalashtirish manbalari va amal qilish muddatlarini belgilaydigan normativ-huquqiy hujjatlar, shartnomalar va ularning alohida qoidalari ko'rsatilgan reyestri;

3) Budjet mablag'larini taqsimlovchining rivojlantirish dasturi;

4) Budjet mablag'larini taqsimlovchining rivojlantirish dasturi bilan uzviy bog'liq holda tuzilgan keying yil uchun budjet buyurtmasi.¹¹


Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari budjet so'rovi olinganidan keyin uch kunlik muddat ichida tegishli budjetlar loyihalarini tuzish, ushbu loyihalarni tayyorlash tartibini va muddatlarini belgilash yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti loyihasini tuzish jarayonida budjet daromadlarining ularni tashkil etish manbalari bo'yicha kelib tushishi prognozi hamda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti makroiqtisodiy rivojlanish parametrlari loyihasida nazarda tutilgan xalq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish nisbatlarga rioya etish uchun xarajatlar prognozini belgilash ta'minlanadi.

Muayyan davr uchun mo'ljallangan budjet xarajatlarning daromadlaridan rejali ortishi (defitsit) faqat Respublika budjeti parametrlarida nazarda tutilishi mumkin. Uni qoplash manbalari ichki va tashqi qarzlar natijasida jalb etilgan

¹¹ O. Ga'ybullayev, U. O'roqov. O'zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni.-T.: "Baktria -Press", 2016 y., 95-bet

mablag'lar, moliya yili boshidagi respublika budjeti mablag'lari qoldig'i hamda qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar bo'lishi mumkin.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti loyihasini tuzish jarayoni¹²

O'zbekiston respublikasi davlat budjeti loyihasini tuzish jarayonida respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar o'rtasida mablag'larni budjetlar o'rtasida qayta taqsimlash bo'yicha yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar, shu jumladan tartibga soluvchi umumdavlat soliqlaridan respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlarga ajratiladigan mablag'lar miqdori belgilanadi.

¹²V.Sh. Nuritdinova, M.A. Sharapova. Moliyaviy nazorat. O'quv qo'llanma. 2014 y. 226-bet

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan muddatlarda keying moliya yili uchun budjet so'rovini quyidagilarga jo'natadi:

a) respublika budjetidan moliyalashtiriladigan budjet mablag'larini oluvchilarga-ular uch kun davomida budjet buyurtmalarini tuzish bo'yicha ishlarni tashkil etish to'g'risida buyruq chiqardi;

b) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimiyatlari va Toshkent shahar hokimiyatiga-ular tomonidan tegishli hududlar budjetlari loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etish uchun.

Budjet so'rovini olgach, respublika budjetidan budjet mablag'larini oluvchilar budjetdan ajratiladigan mablag'larni olish uchun ariza (buyurtma) tuzadilar. Bu loyihalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) Daromadlar bo'yicha-soliqlar yig'implar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar kontingenti hamda davlat budjetiga boshqa daromadlar bo'yich hisob-kitoblar tegishli mintaqalar va daromadlarning har biri turi bo'yicha alohida tuziladi;

2) Xarajatlar bo'yicha-ko'rsatkichlar ro'yxati, uning asosida budjet mablag'larini oluvchilar budjetdan ajratilgan mablag'larni olish uchun buyurtmalar tuzishi kerak, yana tarmoqlar, shtatlar va kontingentlar bo'yicha ko'rsatkichlar tuziladi.

Budjetdan ajratiladigan mablag'larni oluvchilar budjetdan mablag'lar ajratilishi uchun buyurtmalar belgilangan muddatlarda tegishli moliya orgnlariga taqdim etadilar. Demak, Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan budjet mablag'larini oluvchilar buyurtmalarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimiyatlari va Toshkent shahar hokimiyati moliya boshqarmalariga joriy yilning birinchi iyunidan kechiktirilmagan holda, respublika budjetidan moliyalashtiriladiganlar esa, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga joriy yilning birinchi iyulidan kechiktirilmagan holda jo'natadilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimiyatlari va Toshkent shahar hokimiyati, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar keyingi moliya yili uchun mo'ljallangan tegishli budjet loyihalarini tuzadilar va ularni O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartib va muddatlarda, ammo joriy yilning birinchi iyulidan kechiktirilmagan holda taqdim etadilar.

Respublika budjetdan mablag' oluvchilarning arizalariga asosan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi respublika budjeti loyihasini tayyorlaydi va Qoraqalpog'iston respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar budjetlari loyihalari hamda davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari loyihalari ko'rib chiqilishini hisobga olib, keyingi moliya yili uchun O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti loyihasini tuzadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi kelgusi moliya yiliga mo'ljallangan Davlat budjeti loyihasini tayyorlaydi, uni joriy yilning o'n beshinchi sentabrigacha O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga yuboradi hamda Davlat budjeti loyihasini O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining tegishli xulosasi bilan birga joriy yilning birinchi oktyabrigacha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat budjeti loyihasini budjet mablag'lari oluvchilar taqdim etgan buyurtmalarga va Davlat budjetining tuzilmasiga kiruvchi budjetlar loyihalariga muvofiq tayyorlaydi.

Kelgusi moliya yiliga mo'ljallangan Davlat budjeti loyihasi:

1) budjet tasnifiga muvofiq aks ettiriladigan Davlat budjeti daromadlari va xarajatlarini;

2) umumdavlat soliqlaridan Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar budjetlariga ajratmalar normativlari, shuningdek mazkur budjetlarning daromadlari, shu jumladan budjet dotatsiyalari va budjet subvensiyalari hamda xarajatlari miqdorlarini;

3) Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar budjetlarining aylanma kassa mablag'i me'yori miqdorlarini;

4) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zahira jamg'armasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar budjetlari zahira jamg'armalarining nazarda tutilmagan xarajatlarni qoplashga tegishli budjet mablag'lari yo'naltirilishi mumkin bo'lgan doiradagi miqdorlarini;

5) Davlat budjeti taqchilligining eng yuqori miqdori va uni moliyalashtirish manbalarini;

6) davlat ichki va tashqi qarzlarining, davlat tomonidan beriladigan kreditlar hamda kafolatli jamg'armaning eng yuqori miqdorlarini o'z ichiga oladi.

Kelgusi moliya yiliga mo'ljallangan Davlat budjeti loyihasini tayyorlash jarayonini muvofiqlashtirish va nazorat qilishni O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi vakil qilingan vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, shuningdek tegishli tashkilotlar bilan birgalikda quyidagilarni o'z ichiga olgan budjetnoma loyihasini ishlab chiqadi va birinchi oktyabrgacha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi:

1) mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o'tgan yilgi asosiy yakunlari va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning joriy yilgi yakunlarining prognoz bahosi;

2) o'tgan yilgi Davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobot O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining tegishli xulosasi bilan va joriy yilgi Davlat budjetining kutilayotgan ijrosi bahosi;

3) kelgusi yilga mo'ljallangan Davlat budjeti loyihasini tuzishda asos bo'lgan kelgusi yilning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari;

4) mamlakat budjet va soliq siyosatining kelgusi yilgi asosiy yo'nalishlari loyihasi O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining tegishli xulosasi bilan;

5) mamlakat budjet va soliq siyosatining kelgusi yilgi asosiy yo'nalishlariga sharhlar;

6) davlat ichki va tashqi qarzlari hamda ular bo'yicha xarajatlar holati to'g'risidagi ma'lumotlar;

7) kelgusi moliya yiliga mo'ljallangan Davlat budjeti loyihasi O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining tegishli xulosasi bilan.

Budjetnoma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan joriy yilning o'n beshinchi oktyabridan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga kiritiladi.

Davlat budjeti O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilinadi.

Davlat budjetiga muvofiq:

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar budjetlari Davlat budjeti qabul qilinganidan keyin ikki haftalik muddat ichida tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyat vakillik organlari tomonidan;


Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar tarkibiga kiruvchi tumanlar va shaharlar budjetlari Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar budjetlari qabul qilinganidan keyin bir haftalik muddat ichida tuman, shahar hokimiyat vakillik organlari tomonidan;

Shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlar budjetlari va tuman bo'ysunuvidagi shaharlar budjetlari belgilangan muddatlarda mahalliy hokimiyat yuqori turuvchi vakillik organlari tomonidan qabul qilinadi.

Budjet jarayonining ko'rib chiqilayotgan bosqichi muhim elementi budjet ko'rsatkichlari va budjetni ijro etish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni yetkazish muddatlari hisoblanadi. Bunda ular budjet ko'rsatkichlarini yetkazish jarayoni rejalashtirilayotgan moliya yili boshlanguniga qadar tugallanishi, yangi moliya yilining birinchi kunidan boshlab budjetni amalda ijro etishga kirishish uchun budjetni tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash muddatlari bilan amalda bog'langan bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilinib, uning parametrlari O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanganidan keyin Moliya Vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar

hokimiyatlari va Toshkent shahar hokimiyati, viloyatlar va Toshkent moliya boshqarmalariga quyidagilarni ma'lumot uchun yetkazadi:



4-rasm. Davlat budjeti loyihasini tayyorlash muddatlari¹³

✓ Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar budjetlari va Toshkent shahar budjeti daromadlari va xarajatlari miqdori;

¹³O'. Ga'ybullayev, U. O'roqov. O'zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni.-T: "Baktria -Press", 2016 y., 107-bet.

✓ Respublika budjetidan keyingi moliya yili uchun ularga berilayotgan budjet dotatsiyalari (subvensiyalari) hajmlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar budjetlari va Toshkent shahar budjeti zahira jamg'armasi miqdori;

✓ Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar budjetlari va Toshkent shahar budjeti aylanma kassa miqdorlari;

✓ Qoraqalpog'iston Respublikasibudjeti, viloyatlar budjetlari va Toshkent shahar budjetiga tartibga soluvchi umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari.

Bunday axborot, ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining hududiy moliya bosh boshqarmasi tomonidan uch kunlik muddat ichida yetkaziladi. Ularga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar vakillik organlari davlat budjeti qabul qilinganidan keyin ikki haftalik muddat ichida tegishli budjetlarni qabul qilishadi.

Davlat budjeti daromadlarining tasdiqlangandan yillik va choraklik hajmlari budjet tasnifi bo'limlari, paragraflar bo'yicha tegishli hududlarga bo'lingan holda, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasiga yetkazib beriladi.

Respublika budjeti hisobidan moliyalashtiriladigan budjet mablag'larini oluvchilarga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan shakllar bo'yicha budjet tasnifiga muvofiq xarajat bo'limlari, boblari, paragraflari, guruhlar, turlari va ob'ektlari, bo'yicha ular uchun belgilangan shakllar bo'yicha ular uchun belgilangan xarajatlar hajmlari o'n kunlik muddat ichida ma'lum qilinadi.

Davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan shakllar bo'yicha ular uchun nazarda tutilgan daromadlar va xarajatlar hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlarni, respublika budjetidan moliyalashtiriladigan budjet mablag' oluvchilar kabi, bir xil muddatda oladilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar budjetlari va Toshkent shahar budjeti qabul qilinganidan keyin tegishli moliya organlari bir haftalik muuddat ichida joylardagi davlat soliq xizmati organlariga –ko'rsatilgan budjetlar

tasdiqlangan daromadlar hajmlarini, ushbu budjetlardan moliyalashtiriladigan tashkilotlarga esa-ular uchun belgilangan budjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmlarini ma'lumot uchun yetkazadilar. Respublika (Qoraqalpog'iston) va viloyatlarga qarashli tumanlar va shaharlar budjetlari, shuningdek shahar (tumanga qarashli shaharlar) tarkibiga kuruvchi tumanlar budjetlari qabul qilinganidan keyin budjetlar ko'rsatkichlari tegishli soliq organlariga tegishli budjetlardan budjetdan ajratiladigan mablag'larni oluvchilarga xuddi shunday tartib va muddatlarda yetkazib beriladi.

2.2. Budjet ijrosi va uning nazorati tahlili

Davlat budjetini ijro qilish –uning daromad qismida rejalashtirilgan to'lovlarning har bir manba bo'yicha o'z vaqtida va to'liq kelib tushishini ta'minlash, shuningdek, uning xarajat qismida nazarda tutilgan barcha tadbirlarni uzluksiz moliyalashtirilishidir¹⁴.


Budjet tizimi budjetlarining ijrosi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan g'azna ijrosi yo'li bilan amalga oshiriladi. Budjet ijrosini tashkil qilishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yagona axborot tizimida budjet tizimi budjetlari, budjet tashkilotlari va budjetdan mablag' oluvchilar uchun shaxsiy g'azna hisobvaraqlari ochiladi.

Budjet tashkilotlari va budjetdan mablag' oluvchilar o'z xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan budjetdan ajratiladigan mablag'larni moliya yili tugaguniga qadar sarflaydilar.

Budjet tizimi budjetlarining ijrosi moliya yili mobaynida va qo'shimcha vaqt davrida amalga oshiriladi. Keyingi yilning yanvar oyi moliya yiliga qo'shimcha vaqt davri bo'lib, bu davr mobaynida o'tgan yil uchun budjet tizimi budjetlarining ijrosi amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi budjet tizimi budjetlarining qo'shimcha vaqt davridagi ijrosi bo'yicha operatsiyalarni o'tkazish tartibini va eng kech muddatlarini belgilaydi.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi, VII bo'lim, 19-bob, 109-modda.

Budjet tizimi budjetlarining xarajatlari daromadlar va xarajatlar yoyilmasida nazarda tutilgan budjetdan ajratiladigan mablag‘lar doirasida hamda budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilar faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydigan muddatlarda, daromadlarning tushishi hisobga olingan holda amalga oshiriladi. Budjet kodeksining 117-moddasida budjet tizimi budjetlari daromad qismining ijrosi nimalarni o‘z ichiga olishi ko‘rsatilgan.




5-rasm. Budjet tizimi budjetlari daromadlari ijrosini tashkil etish¹⁵

Budjet kodeksining 120-moddasiga ko‘ra, budjet tizimi budjetlari xarajatlar qismining ijrosi quyidagilarni nazarda tutadi:

Budjet ijrosi jarayonida budjet tashkilotlari va budjetdan mablag‘ oluvchilarga turli darajadagi budjetlardan budjet mablag‘larini ajratishga yo‘l qo‘yilmaydi.

“Budjet tizimi to‘g‘risida”gi qonunga muvohiq davlat budjeti va uning tuzilmasiga kiruvchi budjetlarni ijro etish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, joylardagi ijroiya organlari va Moliya vazirligi vakolatiga kiradi.

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining VII bo‘lim, 19-bob, 109-moddasi asosida keltirildi.



6-rasm. Budjet tizimi budjetlari xarajatlari ijrosini tashkil etish¹⁶

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat budjetining ijro etilishini tashkil qiladi. Moliya vazirligi va davlat boshqaruvi boshqa organlarining davlat budjetini ijro etish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini belgilaydi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va joylardagi ijroiya organlari mablag'larning tegishli budjetlaga to'liq va o'z vaqtida kelib tushishi va ularning belgilangan maqsadlarda xarajat qilinishi ustidan nazoratini amalga oshiradi.

Respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlarni bevosita ijro etish moliya organlari tizimi (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, tegishli hokimiyatlar moliya boshqaemalari va bo'limlari) tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va boshqa moliya organlari davlat budjeti va tuzilmasiga kiruvchi budjetlarning qonunchilikda belgilangan parametrlari doirasida ijro etilishi uchun mas'ul hisoblanadi. Davlat budjeti daromadlari va xarajatlarini boshqarish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining VII bo'lim, 19-bob, 120-moddasi asosida keltirildi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi davlat budjeti ijrosini ta'minlaydi, respublika budjetini ijro etadi, Qoraqalog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlarning ijro etilishiga rahbarlik qiladi. Bu organ davlat budjetida nazarda tutilgan barcha daromadlarning kelib tushishini ta'minlash hamda budjetdan ajratilgan mablag'larning qat'iy belgilangan maqsadlardan oqilona va tejamkorlik bilan ishlatilishi yuzasidan chora-tadbirlarni tashkil etadi va amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi respublika budjetining vazirliklar, idoralar, budjet tashkilotlari va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan ijro etilishi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa banklarning budjet kassa ijrosi qoidalariga rioya etilishi, kapital qo'yilmalar va budjetdan ajratiladigan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladigan boshqa tadbirlarning banklar tomonidan moliyalanishini nazorat qiladi. Yo'naltirilgan sertifikatlarni tayyorlash, rasmiylashtirish, berish, ijro etish va hisobini yuritish tartibi hamda turli darajadagi budjetlarning ijrosi to'g'risidagi buxgalteriya hisobini yuritish tartibini belgilaydi va h.k.

Davlat budjetining ijro etilishida soliq va bojxona xizmati organlari katta rol o'ynaydi. Soliq organlari soliqlar, majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblab yozilishi, ularning O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasiga, Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'rmasiga, Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga to'liq va o'z vaqtida kelib tushishini nazorat qiladi. Bojxona organlari zimmasiga bojxona to'lovlarini to'g'ri hisoblab yozilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishini nazorat etish vazifasi yuklatilgan.

Davlat budjetini ijro etishda budjetning kassa ijrosi, ya'ni pul mablag'laini qabul qilish, saqlash va budjetdan ajratilgan mablag'larni oluvchilarga berish, "Budjet tizimi to'g'risida"gi qonunda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

Respublika banklari davlat budjetiga xizmat ko'rsatish bo'yicha kassa operatsiyalarni bajarishadi:

- Respublika va mahalliy budjetlar daromadlariga kelib tushadigan mablag'larni qabul qiladi va tegishli hisobvaraqlarga kiritadi;
- Davlat soliqlari va daromadlari bo'yicha tushumlardan mahalliy budjetlarga mablag'lar ajratadi;
- Respublika va mahalliy budjetlar mablag'larini hisobvaraqlarda mavjud bo'lgan summalar doirasida beradi va h.k.

Banklar ko'rsatilgan operatsiyalarni bajarar ekan, respublika budjeti daromadlari va xarajatlari hisobini yuritadi, belgilangan muddatlarda respublika budjetining daromadlar bo'yicha kassa ijrosi to'g'risida hisobot; korxonalar, tashkilotlar va muassasalar tomonidan budjetga soliqlarni o'tkazish uchun topshiriqnomalar hamda davlat maqsadli jamg'armalariga badallarning o'z vaqtida taqdim etilishi nazorat qiladi; respublika va mahalliy budjetlarda turgan muassasalar va tashkilotlarga hisob-kitob va kassa xizmatini ko'rsatadi, Markaziy bankning amaldagi ko'rsatmalariga muvofiq ravishda budjet mablag'lari va budjetdan tashqari mablag'lar berilishini nazorat qiladi.

2006-yil 1-yanvardan boshlab mamlakatimizda davlat budjetini ijro etishning g'aznachilik tizimi joriy etildi.


Davlat budjetining g'azna ijrosi davlat budjetining barcha daromadlarini yagona g'azna hisobvarag'iga kiritishdan, shuningdek davlat budjetining xarajatlarini shu hisobvarag'idan to'lashdan iborat.

Davlat budjetining ijro etilishida g'aznachilikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1) Davlat budjetining kassa ijrosi;
- 2) Davlat budjeti mablag'larini tushumi va sarfi ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- 3) Davlat budjeti mablag'larini boshqarish;
- 4) Davlat budjetida mablag'lar nazarda tutilgan yuridik yoki jismoniy shaxslar nomidan va ularning topshirig'iga binoan to'lovlarni amalga oshirish;
- 5) Davlat budjeti ijrosining qanday borayotganligi to'g'risidagi hisobotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish;

- 6) O'zbekiston Respublikasi davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini bajarish va h.k.

G'aznachilik yagona g'azna hisobvarag'idagi va g'aznachilikning boshqa bank hisobvaraqlaridagi davlat budjeti mablag'larini ularni davlat budjetining xarajatlarini belgilangan muddatlarda amalga oshirish uchun yo'naltirish, shuningdek davlat budjeti bo'sh mablag'larini bank depozitlari va boshqa aktivlarga vaqtincha joylashtirish hamda ular hisobidan respublika budjetiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga, mahalliy budjetlarga, shuningdrk davlat maqsadli jamg'armalariga budjet ssudalari berish yo'li bilan boshqaradi.



7-rasm. Davlat budjeti ijrosi bo'yicha hisobot taqdim etish tartibi¹⁷

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yilning har choragida Davlat budjeti ijrosining O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi taqdim etadigan yakunlarini ko'rib chiqadi.

Respublika budjetidan xarajatlari rejalashtirilgan budjet tashkilotlari va budjetdan mablag' oluvchilar budjetdan ajratiladigan mablag'lardan hisobot

¹⁷O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksi

davrida foydalanganlik to'g'risidagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga shu vazirlik uchun belgilangan muddatlarda taqdim etadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan hamda mahalliy budjetlardan xarajatlari rejalashtirilgan budjet tashkilotlari va budjetdan mablag' oluvchilar budjetdan ajratiladigan mablag'lardan hisobot davrida foydalanganlik to'g'risidagi hisobotlarni tegishli moliya organlariga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan muddatlarda taqdim etadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotni, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot yilidan keyingi yilning 1-apreligacha taqdim etadi.

Vazirlar Mahkamasi Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotni tashqi audit o'tkazish va baholash uchun O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga hisobot yilidan keyingi yilning 5-apreligacha yuboradi. Hisob palatasi yillik hisobotga doir xulosani hisobot yilidan keyingi yilning 10-mayidan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuboradi.

Vazirlar Mahkamasi Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotni O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining xulosasi bilan birga hisobot yilidan keyingi yilning 15-mayidan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga taqdim etadi.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tegishli hisobot davri uchun taqdim etilgan Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining siyosiy partiyalar fraktsiyalari, deputatlar guruhlar va qo'mitalarida muhokama qilish asosida ko'rib chiqadi. Ko'rib chiqilgan yillik hisobot Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisida ko'rib chiqiladi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qarori bilan tasdiqlanadi, shundan keyingina davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari ijrosi

to'g'risidagi yillik hisobot O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy web-saytiga joylashtiriladi.¹⁸

Iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning bugungi bosqichida budjet daromadlari ishlab chiqarishning rivojlanishi, xo'jalik sub'ektlarining va aholi daromadlarining oshib borishi, soliq bazalarining kengayishi, mulk shakllarining ko'payishi bilan ortib bormoqda. Lekin bu davrda jamiyatning ko'ptomonlama ehtiyojlari ham kamaygani yo'q, aksincha, budjet tomonidan moliyalashtirilishi ob'ektiv zaruriyat bo'lgan, mohiyat jihatidan yangidan-yangi tadbirlar, loyihalar, yo'nalishlar paydo bo'ldi. Ularni to'liq hajmda moliyalashtirish yanada ko'proq mablag'larni taqozo etadi. Lekin daromadlarni muttasil oshirib borish (xususan, soliqlarni oshirish orqali) imkoniyati amaldagi soliq qonunchiligi bilan chegaralangan. Shu bilan birga, soliqlarni asossiz ravishda oshirish iqtisodiy sub'ektlarning xo'jalik faoliyatiga jiddiy putur yetkazadi, ularning ishlab chiqarishni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirishga bo'lgan qiziqishlarini so'ndiradi. Bunday sharoitda budjet xarajatlarining budjet daromadlari bilan balanslangan bo'lishiga har doim ham erishib bo'lmaydi.

Davlat budjeti xarajatlari tom ma'noda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining moliyaviy mazmunini aks ettiradi. O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining xarajatlarining keyingi yillardagi tarkibiy tahlili ko'rsatadiki, xarajatlar nominal mazmunda (mutlaq ko'rsatkichlarida) ortib borayotganligini kuzatish mumkin. lekin, uning yalpi ichki mahsulotga nisbatan salmog'ining kamayib borish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Davlat budjeti xarajatlarining tarkibidagi ijtimoiy-madaniy tadbirlar xarajatlari yil sayin oshib borgan. Keying 5 yil mobaynida jami budjet xarajatlari tarkibida ijtimoiy sohaga qilinayotgan xarajatlar 2012-yilda 58.3 foizdan 2015-yilda 59.1 foizgacha o'sib borgan. Ushbu holat jahondagi barcha davlat orasida eng yuqori ko'rsatkichni tashkil etadi. Ushbu xarajatlarning o'sib borishi bilan birga, ularning davlat budjeti xarajatlaridagi yuqori salmoqni tashkil etadi.

¹⁸ Moliya huquqi. E.Hojiyev, O. Kamalov, B.Artikov.-T.:O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi, 2012. 130-bet.

Maqsadli fondlarsiz davlat budjetining xarajatlari (mlrd so'm)¹⁹

Ko'rsatkichlar	2012-yil		2013-yil		2014-yil		2015-yil		2016-yil	
	so'm	%	so'm	%	so'm	%	so'm	%	so'm	%
Davlat budjeti xarajatlari	21190	100	26312	100	31582	100	37967.7	100	40 930	100
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash	12338	58.3	15573	59.2	18873	59.7	22457	59.1	22770,7	55.6
Iqtisodiyot xarajatlari	2338	11	2791	10.6	3385	10.7	4119.7	10.1	4 335,9	10.6
Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish	1174	5.5	1300	4.9	1500	4.7	1800	4.7	2 131,8	5.2
Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud organlari xarajatlari	844	3.9	825	3.1	1000	3.1	1199.9	3.1	1 790,8	4.37
Boshqa xarajatlar	4495	21.2	5813	22.0	6903	21.8	8391.1	22.0	8 553,8	20.9

Iqtisodiyot xarajatlari es 2011-yilda 1938 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, jami budjet xarajatlarida 11.5 foizni tashkil etgan. 2015-yilga kelib ushbu xarajatlarning jami davlat budjeti xarajatlaridagi salmog'i 10.1 foizni tashkil etgan. Lekin ushbu xarajatlari nominal mazmunda o'sib borgan. Markazlashtirilgan investitsiyalarni budjetdan moliyalashtirish uchun 2011 yilda 1037 mlrd so'm, 2012-yilda 1174 mlrd so'm, 2013-yilda 1300 mlrd so'mni, 2014-yilda 1500 mlrd so'mni va 2015-yilda 1800 mlrd so'mni tashkil etmoqda. Bu o'z navbatida ,

¹⁹O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida talaba tomonidan tayyorlanadi

hozirgi kunda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va yangilash, innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish bilan bog'liq yirik va strategik ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni moliyalashtirishda budget investitsiyalarining ham ahamiyati yuqoriligidan dalolat beradi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud organlari faoliyati uchun xarajatlar jami xarajatlar tarkibida 2011-yilda jami budget xarajatlari tarkibida 2011-yilda jami budget xarajatlari 3.7 foizni, 2015-yilga kelib esa bu xarajatlar 3.1 foizni tashkil etmoqda. Demak, nominal mazmunda ushbu xarajatlar qariyb 2 barobardan ko'p o'sgan bo'lsada, ularning budget xarajatlaridagi salmog'i kamayib borgan.

Yuqoridagi jadval ko'rsatkichlari budget siyosatining asosiy yo'nalishlarini o'zida ifoda etib, unda tabiiy ravishda ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalalari ustuvor ekanligi kuzatilmoqda.

Hozirgi sharoitda davlat budjeti uchun nisbatan yuqori darajadagi moliyaviy yuk bo'lib tushayotgan ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari bir tomondan aholining kam ta'minlangan qatlamini himoyalash moliyaviy asosini o'zida ifodalaydi. Ikkinchidan, aholining turmush farovonligini oshirish, zamonaviy sog'liqni saqlash tizimini shakllantirishda davlat budjetining ahamiyati ortib borayotganligini ko'rsatib bermoqda.

Ta'kidlash joizki, barcha davlatlar o'z funktsiya va vazifalarining uzluksiz hamda to'liq ravishda amalga oshirish orqali taraqqiyotni ta'minlash uchun zarur mablag'larni shakllantirishda soliqlarga murojaat qiladi. Shu sababli bugungi kunda jahon amaliyotida davlatning funktsiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'lar shakllantirishning soliqlardan boshqa usuli amalda qo'llanilmagan.

O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti hamda maqsadli jamg'atmalar budjeti daromadlari bevosita soliqlar, bilvosita soliqlar, Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i va boshqa daromadlardantashkil topgan. O'zbekiston Respublikasi budget daromadlarini yillar bo'yicha o'sish tendensiyasini ko'zatadigan bo'lsak, bunda bilvosita soliqlarning hajmi doimo yuqori bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi budjet daromadlari tahlilini quyida keltirilgan jadval asosida ko'rib chiqishimiz mumkin.

2-jadval

Maqsadli fondlarsiz davlat budjetining daromadlari (Mlrd.so'm)²⁰

Ko'rsatkichlar	2012-yil	2013-yil	2014-yil	2015-yil	2016-yil
Davlat budjeti daromadlari (maqsadli jamg'armalarsiz) jami	21295.7	26223.0	31729.6	36492.7	41030.7
Bevosita soliqlar	5414.2	6353.7	7433.1	8798.5	9853.6
Bilvosita soliqlar	10434.5	13398.6	16851.8	19193.8	21131.0
Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	3312.5	3888.2	4311.6	4816.1	5306.2
Boshqa daromadlar	2134.4	2582.5	3133.1	3684.4	4739.9

Keltirilgan 2-jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2011-yil davlat budjeti daromadlari 17061.3 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2016 yilga kelib 41030.7 mlrd so'mga yetib, 19735 mlrd so'mga yoki 192.6 %ga ko'paydi. Bunda bevosita soliqlar 4439.4 mlrd so'mga yoki 181.9 %, bilvosita soliqlar 10696.5 mlrd so'mga yoki 160.1% ga, resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i 1993.7 mlrd so'mga yoki 160,1 %ga hamda boshqa daromadlar 2605.5 mlrd so'mga yoki 222.0 % oshganini kuzatish mumkin.

Shuningdek, 2011-yilda davlat budjetining 91.9 foizi solikli tushumlar 8.1 foizi boshqa daromadlardan, 2016-yilda esa 88.4 foizi solikli tushumlar, 11.6 foizi boshqa daromadlardan shakllantirilgan. Bilvosita soliqlar hamda resurs to'lovlari va mol-mulk solig'ining ulushi yildan yilga oshib bormoqda.

2-bob bo'yicha xulosa

²⁰ "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. №1, fevral, 2017 yil

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi vakil qilingan vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, shuningdek tegishli tashkilotlar bilan birgalikda quyidagilarni o'z ichiga olgan budjetnoma loyihasini ishlab chiqadi va birinchi oktyabrgacha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi:

1) mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o'tgan yilgi asosiy yakunlari va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning joriy yilgi yakunlarining prognoz bahosi;

2) o'tgan yilgi Davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobot O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining tegishli xulosasi bilan va joriy yilgi Davlat budjetining kutilayotgan ijrosi bahosi;

3) kelgusi yilga mo'ljallangan Davlat budjeti loyihasini tuzishda asos bo'lgan kelgusi yilning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari;

4) mamlakat budjet va soliq siyosatining kelgusi yilgi asosiy yo'nalishlari loyihasi O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining tegishli xulosasi bilan;

5) mamlakat budjet va soliq siyosatining kelgusi yilgi asosiy yo'nalishlariga sharhlar;

6) davlat ichki va tashqi qarzlar hamda ular bo'yicha xarajatlar holati to'g'risidagi ma'lumotlar;

7) kelgusi moliya yiliga mo'ljallangan Davlat budjeti loyihasi O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining tegishli xulosasi bilan.

Budjetnoma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan joriy yilning o'n beshinchi oktyabridan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga kiritiladi.

Davlat budjeti O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilinadi.

Davlat budjetiga muvofiq:

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar budjetlari Davlat budjeti qabul qilinganidan keyin ikki haftalik muddat ichida tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyat vakillik organlari tomonidan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar tarkibiga kiruvchi tumanlar va shaharlar budjetlari Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar budjetlari qabul qilinganidan keyin bir haftalik muddat ichida tuman, shahar hokimiyat vakillik organlari tomonidan;

shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlar budjetlari va tuman bo'ysunuvidagi shaharlar budjetlari belgilangan muddatlarda mahalliy hokimiyat yuqori turuvchi vakillik organlari tomonidan qabul qilinadi.

Davlat budjeti daromadlari soliq, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq shakllantiriladi.

Hisoblab chiqarilgan, biroq joriy yilning o'ttiz birinchi dekabrigacha Davlat budjetiga to'lanmagan daromadlar kelgusi yilda Davlat budjetiga o'tkazilishi kerak.

Budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlari budjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida moliya yili uchun tasdiqlangan xarajatlar smetasi asosida tayinlash sertifikatini muayyan davrga va summaga rasmiylashtirish orqali, shuningdek budjet mablag'lari oluvchining tovar yetkazib beruvchi (ish bajaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi) bilan tuzilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomasi asosida:

respublika budjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar bo'yicha - qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi yoki uning hududiy bo'linmalari tomonidan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan yoki mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan tashkilotlar bo'yicha - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining hududiy bo'linmalari tomonidan to'lanadi.

3-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUDJET JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

3.2. Budjet jarayonini takomillashtirishda ilg'or xorij tajribasidan foydalanish

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunimizda iqtisodiyotning barcha sohalarida rivojlangan mamlakatlarning tajribasidan foydalanish ularni milliy iqtisodiyotimizga moslashtirib foydalanish ish faoliyatini samarali tashkil qilishda o'z natijasini ko'rsatadi. Misol uchun Xitoy budjet jarayonini oladigan bo'lsak quyidagilarni bilish mumkin:

Xitoy Xalq Respublikasi uchun ham davlat budjeti eng avvalo hukumat va fuqarolar ehtiyojlarini ta'minlovchi yagona siyosiy instrument hisoblanadi.

Budjet jarayoni jamiyat va hukumat xarajatlar rejasini qonun organlari tomonidan amalga oshirilishini ifoda etadi. Budjet jarayoni umumiy holatda 4 bosqichga ajratiladi:

- Budjet loyihasini tayyorlash;
- Budjet loyihasini ko'rib chiqish va qabul qilish;
- Ijro etish;
- Moliyaviy hisobot berish va audit qilish.

Budjet loyihasini tayyorlash bosqichida budjet daromadlar tomonida hukumatning har bir daromad manbalari bo'yicha kutilayotgan daromad manbalari prognozi keltiriladi, shu jumladan barcha manbalardan yig'ilishi kutilayotgan daromadlar budjet takliflari tafsilotlari ham aks ettiriladi. Xarajatlar tomonidan esa hukumat har bir dastur bo'yicha xarajatlar prognozini keltiradi. Bunda xarajatlar tafsilotlari har bir agentlik va ularning idoralari bo'yicha (ish o'rinlari soni, maosh va boshqa boshqaruv xarajatlari) aks ettiriladi. Bundan maqsad hukumat xarajatlarining nazoratini olib borishda ma'lumotlar aniqligiga erishishdir.

Ikkinchi bosqichda qonun chiqaruvchi organ o'z vakolatidan foydalanib, budjet loyihasini ko'rib chiqadi va ko'proq hukumatdan, xalq orasida ularni eshitib birinchi darajali ehtiyojlar haqida budjet ma'lumotlarini yig'adi va nihoyat ularni

qonuniy kuchga kirgizadi. Hukumat tomonidan maqsadli ba'zi bir dasturlarning joriy xarajatlari tarkibiga yangi qonun dasturlarini kiritish yoki aksincha, olib tashlash, qayta-qayta ko'rib chiqish orqali budjetga tsrkibiga kiritiladi.

Ijro etish bosqichi davomida qonun chiqaruvchi organ hukumat bo'ylab asosan ikki yo'l davriy hisobot va qabul qilingan budjetni qaytadan ko'rib chiqish bilan nazoratni kuchaytiradi. Tekshirilgan budjet qonuniy kuchga kiritiladi va hukumat tomonidan amalga oshiriladi, budjetni qonun chiqaruvchi organsiz o'zgartirishlar kiritishga yo'l qoyilmaydi. Shunga qaramay butun fiskal yili davomida budjetda o'zgarishlar bo'lishi muqarrar. Ushbu o'zgarishlar xarajatlar va daromadlar qismida sodir bo'ladi. Daromadlar tomonida haqiqiy yig'ilgan daromadlar mo'ljallangan daromadlardan farq qilishi mumkin, bu yashirin iqtisodiy faoliyat natijasida sodir bo'ladi. Aksincha daromadlar yetishmovchiligi sodir bo'lsa, xarajatlar qisqartiriladi yoki daromadlar o'stiriladi, balansga erishilgach budjet ehtiyojlari qanoatlantiriladi. Qachonki real daromadlar loyihalashtirilgan daromadlardan ko'p chiqsa, xarajatlar qismi ko'paytirilishi yoki kelajak uchun jamg'arib qo'yilishi mumkin. Xarajatlar qismida hukumatning kelajak loyihalari ham aks ettiriladi, bunda haqiqiy xarajatlar loyihalashtirilgan xarajatlardan farq qilishi mumkin. Birinchidan, davlat huquqiy va ijtimoiy sohalarga iqtisodiyotni isloh qilish maqsadida rejalashtirilgandn ko'proq sarf qilishiga to'g'ri kelishi mumkin. Ikkinchidan hukumat rejalashtirilgan xarajat bo'limlarini muhimlilik jihatdan xarakterlashi, budjet tarkibidagi o'zgarishlar, dasturlar yoki jamg'armalar o'rtasidagi transfertlar bo'lishi mumkin. Barcha o'zgarishlar qonun chiqaruvchi organ tomonidan qabul qilingan qarorlarga asosan amalga oshiriladi.

Butun moliya yili uchun kiritilgan qonun o'zgartirishlari huumat tomonidan tayyorlangan davriy moliyaviy hisobotda aks ettiriladi. Davriy hisobot (oylik, choraklik, yarim yillik) real daromad va xarajatlarni va loyihalashtirilgan daromad xa xarajatlarga taqqoslashlarni qamrab oladi. Ushbu hisobot orqali qonun chiqaruvchi organ va xalq budjetda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni, yuzaga keladigan profitsit yoki defitsitni kuzatib borishi mumkin.

Muqarrar o'zgarishlar natijasida oxirgi budjet loyihasi dastlabkisidan farqli bo'ladi. O'rtadagi farqni minimallashtirish maqsadida iqtisodiy loyihalarda daromadlar va xarajatlar o'sishining rivojlangan ilmiy modellaridan foydalanish hamda fiskal iqtisodiy hodisalar hamda defitsitni yuzaga keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan loyihalar uchun yirik zahira fondlarini tashkil qilish yo'llaridan foydalaniladi.

Budjet jarayonining so'ngi bosqichida hukumat fiskal yil oxirida butun yil davomida bajarilgan moliyaviy operatsiyalarning umumiy hisobotini taqdim etadi. Hukumat bunda hisobotni faqat oxirgi budjet natijalarini emas balki dastlabki qabul qilingan budjet loyihasi bilan taqqoslangan natijalar va o'zgarishlarni qamrab olingan holatini tayyorlashi kerak. Ushbu taqqoslash barcha daromad manbalarini qamrab olgan daromad hamda barcha hukumat bo'linmalari yoki yirik loyihalarini qamrab olgan xarajatlari o'rtasida amalga oshiriladi. Bundan maqsad hukumatning fiskal yilning boshlanishadayoq qabul qilingan budjet ma'sulyatini ushlab turishdir. Bundan tashqari bir yillik moliyaviy operatsiyalardan so'ng davlatning kapitali va javobgarligida qanday o'zgarishlar sodir bo'lganligi kuzatiladi. Tekshiruvning ishonchliligiga erishish uchun hukumatdan tashqari boshqa mustaqil agentlik tomonidan moliyaviy hisobotlar auditdan o'tkaziladi. Bu jarayonga qonun chiqaruvchi organ rahbarlik qiladi²¹.

Hukumat o'zining budjet mexanizmida tutgan o'rni orqali eng yaxshi budjet loyihasiga erishishda asosiy sub'ekt hisoblanadi. U o'zining qonuniy nazorati bilan soliq to'lovchilarning katta qismining umumiy xohish-istaklarini aks ettirishga, budjet loyihasida mulohazadorli bo'lishga ma'sul hisoblanadi.

Dunyoning eng rivojlangan mamlakatlaridan biri hisoblangan AQSh budjet jarayoni esa besh bosqichni qamrab olgan:

- Prezident budjet bayonnomasi;
- Budjet qarorining qabul qilinishi;

²¹ "Reforming budget process in China" by Shulian Deng and Jun Peng. OECD Journal on Budgeting Volume 2011/1

- Muvofiq qonun loyihasini amalga oshirish;
- Loyihani ko'rib chiqish;
- Tatbiq etish.

AQSh budjet jarayoni AQSh prezidentining Kongresga budjet bayonnomasini taqdim etishi bilan boshlanadi. Prezident budjet talabnomasini Budjet boshqaruvi bo'limi yordamida bir qancha oylar mobaynida tuziladi va Fevral oyining birinchi dushanbasida Kongresga taqdim etadi. Budjet talabnomasi barcha federal ijro etish bo'limlari va mustaqil agentliklar uchun jamg'arish talabnomalarini o'z ichiga oladi. Ushbu talabnoma xarajatlar, daromadlar va qarzдорlik darajalarini baholaydi hamda Budjet boshqaruvi bo'limi tomonidan to'plangan turli xil agentliklar orqali 20 ta budjet funksiyasi kategoriyalari bo'yicha jamg'arish ma'lumotlarini aks ettiradi.


Ikkinchi bosqichda Parlament va Senat qo'mitalari prezident talabnomasi ko'rib chiqadi va Budjet qo'mitalari oxirgi besh yil uchun jami xarajatlar va daromadlar darajasi va keyingi fiskal yil uchun har bir qo'mitaning xarajatlar miqdori belgilangan budjet qarori bo'yicha hisobot taqdim etadi. Budjet qarori butun federal budjet uchun jami xarajat va daromadlarni qamrab olgan holda qabul qilinadi. Ilk marta ushbu qaror prezident imzolanmagan holda qabul qilinadi, ya'ni qonuniy hisoblanmaydi.

Uchinchi bosqich may oyida Parlament keyingi fiskal yil uchun budjet qarorida ixtiyoriy xarajat ajratmalariga asos bo'luvchi 12 ta yillik ijro qonunlarini muhokama qilinishini qamrab oladi. Mablag' ajratish qo'mitalari ham Senatda ham Parlament oldida rejalashtirilayotgan dasturlar uchun xarajat miqdorini belgilashga ma'sul hisoblanadi.

To'rtinchi bosqichda Senat va Parlament 12 ta subqo'mitaning har biridagi mablag' ajratish qarorlarini muhokama qiladi va qabul qiladi.

Beshinchi bosqich prezident har bir mablag' ajratish qarorini imzolagandan so'ng Kongresga yuborildi va qonuniy kuchga kiritiladi. Prezident 12 ta mablag' ajratish qarorlarini barchasini imzolab bo'lgandan so'ng budjet jarayoni

yakunlangan hisoblanadi. Nima bo'lgan taqdirda ham 12 ta qaror ishi 1-oktyabrga qadar tugatiladi va shu paytdan fiskal yil boshlanadi.



7-rasm. AQSH yillik federal budget jarayoni²²

Bir qator rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat budjeti loyihasi tuzish jarayoni xalq ehtiyojlarini hukumat tomonidan obdon o'rganilib, amaliyotga tatbiq etish uchun hukumat organlari va mamlakat prezidenti bilan muhokama qilinib, xarajatlar rejalashtiriladi.

²² Congressional Research Service, "Introduction to the Federal Budget Process," Report 98-721, 3 Dec. 2012.

3.2 Budjet jarayonini takomillashtirishda budjet nazoratini samarali tashkil etish.

Davlat budjeti davlat moliyasi tizimida markaziy o'rinni egallaydi. Iqtisodiyot rivojlanishini turli bosqichlarida budjet davlat siyosatini amalga oshirish quroli, mo'ljallangan dasturlar va tadbirlarni amalga oshirish uchun pul mablag'larini asosiy manbai hisoblanadi. Davlat budjeti, davlat hokimyatining kundalik masalalarini ham, rivojlanish istiqbollari vazifalarini ham hal etishda katta ahamiyat egadir.

Budjet nazoratini amalga oshirish budjet mablag'larini hosil qilish va ishlatishda maqsadlilik, samaradorlik, tartiblilik, qonuniylikning ta'minlanishiga erishish zarurligidan iboratdir, bunda budjet intizomi va uning nazoratida bir qancha muhim ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Budjet nazorati-moliyaviy-iqtisodiy nazoratning tarkibi qismi sifatida mamlakatning barcha darajadagi budjetlarini qonuniy, maqsadli va samarali shakllantirish, taqsimlash va foydalanish, budjet daromadlari tushumini ko'paytirishning qo'shimcha manbalarini aniqlash, budjet-soliq intizomini yaxshilashni tekshirish bo'yicha davlat organlari tomonidan olib boriladigan tadbirlar yig'indisidir.

Budjet nazoratining vazifalari:

- Budjet moddalarining hajmi, tarkibi, maqsadi bo'yicha tuzilishi va ijrosining to'g'riligini ta'minlash;
- Budjetni shakllantirish va ijrosiga ta'sir etuvchi qonunlar hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini moliyaviy ekspertizalash;
- Buxgalteriya hisobi va hisobotini to'g'ri yuritishni nazorat qilish;
- Budjet mablag'lari va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar mabag'larini maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan nazorat qilish;
- Budjet va soliq intizomini yaxshilash va unga rioya qilishni nazorat qilish;
- Budjetlararo munosabatlar mexanizmini amalga oshirishni nazorat qilish;

- Budjet va budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'larining banklardagi va boshqa moliya-kredit muassasalaridagi harakatini qonuniyligini va o'z vaqtidaligini nazorat qilish;

- Soliq to'lovchilarga soliq imtiyozlarini, hududlarga davlat dotatsiyalari, subvensiyalari va transfertlari va boshqalarni taqdim etishda moliyaviy qonunbuzorchiliklari aniqlash, aybdor shaxslarni jazolash bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilish;

- Budjet-soliq intizomini yaxshilash maqsadida profilaktika, ma'lumot-tushuntirish ishlarini olib borish.

Budjet jarayonida uning tamoyillariga to'la rioya qilinishi turli omillar va manfaatlar hisobga olingan holda iqtisodiy hayotda samarali boshqaruvni, bir maromdagi rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq markaziy va mahalliy davlat hokimiyati idoralarining barcha bo'g'inlari o'z budjetlarini tayyorlash va ijro etishda mustaqil bo'lsalarda, budjet loyihasini tayyorlash, ko'rib chiqish, tasdiqlash, qabul qilish va ijro etish masalalarini tartibga soluvchi protsessual huquqiy qoidalar, barcha budjet bo'g'inlari uchun umumiy bo'lgan tartiblar belgilab qo'yilgan. Bunday umumiy qoidalar O'zbekiston budjet qonunchiligi bilan belgilangan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Budjetlar muayyan hudud ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbolini belgilash ko'rsatkichlari hamda dasturlariga muvofiq ravishda amalga oshirilib, budjet loyihasi tayyorlanguniga qadar tegishli milliy-davlat hamda ma'muriy-hududiy birliklar taraqqiyoti rejalari, taxminlari ishlab chiqiladi. Ular asosida hokimyatning ijroiya idoralari tegishli budjetining daromadlari, xarajatlari, jamlanma budjet, quyi hududiy idoralarning minimal budjet ko'rsatkichlari tog'risida hokimyatning vakillik idoralariga takliflar hamda axborotlar taqdim etadilar. Bunday axborotlarning taqdim etilish muddatlari va tartiblari qonunchilik yo'llari bilan belgilab qo'yiladi.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlari Mahkmasi tegishli hokimiyatlarning ijroiya va vakillik idoralariga belgilab qo'yilgan muddatlarda

keying yil budgetining o'ziga xos xususiyatlari, budget loyihasi hisob-kitoblari, ijtimoiy va moliyaviy me'yorlar haqida xabarlar yuboradi.

3. Budget loyihasi tayyorlanayotgan paytda quyidagilar asos qilib olinadi:

- Tartibga solinadigan daromadlardan ajratiladigan ulush (foiz)lar loyihasi va bu daromadlar tarkibi;

- Tegishli yuqori turuvchi budget hisobiga amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan dotatsiya va subvensiyalar ko'rsatkichlari;

- Tegishli hududiy budget daromadlari ro'yxati va bu daromadlarning qayd etilgan daromadlar hissasi (foizda);

- Yuqori turuvchi budget birligi tomonidan berilgan xarajatlar ro'yxati;

4. Hokimyatning ijroiya idoralari o'zlariga yuqori tashkilotlar tomonidan berilgan budget ko'rsatkichlarini chuqur va har tomonlama tahlil qiladi, ularga aniqlik hamda tuzatishlar kiritish xususida o'z taklif-mulohazalar tegishli yuqori turuvchi ijroiya idoralari tomonidan ko'rib chiqiladi va ular rad etilgani taqdirda manfaatdor ijroiya idora ishtirokida mavjud kelishmovchiliklar to'g'risida tegishli bayonnoma tuziladi.

Bayonnomada budget loyihasiga tuzatish kiritish asoslari ham, bu takliflarni rad etilish asoslari ham ko'rsatilishi zarur.

Kelajakda ushbu ixtilofni hal etish uchun tegishli quyi va yuqori hokimyat vakillik idorasi o'rtasida o'zaro tenglik (paritet) asosida kelishtirish komissiyasi tashkil etiladiva uning kelishmovchilik bo'yicha qabul qilgan qarori quyi va yuqori ijroiya idoralariga ma'lum qilinadi.

5. Tegishli hududni rivojlantirish rejalari va istiqbol ko'rsatkichlari asosida ijroya idora hokimyat vakillik idorasiga budget xarajatlari yuzasidan moddama-modda takliflar taqdim etadi. Ayni paytda budget daromadlarini belgilash yuzasidan ham o'z hisob-kitoblarini ma'lum qiladi. Bu takliflar tegishli vakillik idorasi qo'mitalari va komissiyalarida maqsadga muvofiqligi, dolzarbligi, ularni moliyaviy va moddiy jihatdan ro'yobga chiqarish mumkinligi nuqtai-nazaridan qaralgan holda muhokama etiladi.

Vakillik idorasining budget xarajatlariga rozilik berish to'g'risidagi qarori kelgusida budget mablag'lari ajratilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Budget loyihasiga barcha o'zgartirish va tuzatishlar kiritib bo'lingach, ijroiya idorasi uni tasdiqlash uchun vakillik idorasi muhokamasiga taqdim etadi.

6. Budgetlarni tasdiqlash daromadlar va xarajatlarning har bir moddasini muhokama qilish, ular yuzasidan qaror qabul qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Vakillik idorasi, ijroiya mahkamasi, sud hokimyatini mablag' bilan ta'minlash, tegishli budget xarajatlarining mustaqil moddasi sifatida ko'zda tutiladi.

Budgetlarni tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash tegishli budget tasnifiga muvofiq ravishda amalga oshirilmog'i lozim.

7. Budget loyihasini tayyorlashga oid amaliy ishlar tegishli moliya idoralari tomonidan amalga oshiriladi.

8. Budgetlarni qabil qilish O'zbekiston Respublikasi miqyosida tegishli davlat budjeti haqidagi qonun bilan, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqorigi Kengesi qonuni bilan, mahalliy budjetlar esa tegishli xalq deputatlari kengashlari qarorlari bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu qonunlar va qarorlar matbuotda e'lon qilinmog'i kerak.

Barcha darajadagi budjetlar ijrosi davlat hokimyat organlarining muntazam nazorati ostida bo'ladi. Budget ijrosi ustidan nazorat olib borish tartibi va tashkiliy ko'rinishlari tegishli davlat hokimiyati organlari huquqiy aktlari bilan belgilanadi. Ijroiya hokimyat organlari korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda budjet ijrosining borishi ustidan nazorat olib boradilar.

O'zbekiston budget qonunchiligi quyi organlar budget faoliyatiga yuqori aralashuvini taqiqlaydi. Shu bilan birga yuqori organlar qonunda bevosita ko'zda tutilgan hollarda quyi organlar o'zlariga yuqori turuvchi budjetlardan ajratilgan mablag' (subvensiya)lardan to'g'ri foydalanayotganini nazorat qiladilar.

Budjetlar ijrosi budget jarayonining oxirgi bosqichi bo'lib, unda daromadlar va xarajatlar bo'yicha ko'rsatkichlarining amalga oshirilishi ta'minlanadi. Budgetlar ijrosi amalga oshirilishida u yoki bu darajada barcha markaziy va

mahalliy hokimyat vakillik hamda ijroiya organlari, korxona, muassasa, tashkilotlar ishtirok etadilar.

Ammo budget ijrosini ta'minlash bevosita soliq, moliya organlari, hamda kredit muassasalari zimmasiga yuklatilgan bo'lib, jumladan soliq xizmati organlari budgetlarining daromad qismlarini ijro etilishini ta'minlaydilar.²³ Ana shu maqsadda soliq inspeksiyalari yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliq hamda nosoliq to'lovlarning o'z vaqtida to'lanishi, daromadlarni to'g'ri va o'z vaqtida hisobga olib borilishi ustidan nazorat olib boradilar. Ularga ushbu vazifalarni bajarishlari uchun zarur vakolatlar berib qo'yilgan.

Budgetlar ijrosining amalga oshirilishida moliya organlari muhim o'rin tutadilar. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va boshqa moliya organlari belgilangan tartibda markaziy va mahalliy budgetlar ijrosini ta'minlaydilar; O'zbekiston Respublikasi qonunlariga binoan budgetlarga tuzatishlar kiritadilar, budgetlar ijrosi ustidan nazorat qiladilar. Respublika budgetidan ajratilgan mablag'lardan to'g'ri va maqsadga muvofiq ravishda foydalanilayotganligini kuzatib boradilar. Respublika budjeti va jamlanma (konsolidatsiyalangan) budgetlar ijrosi haqida hisobotlarni tayyorlaydilar va uni hukumatga taqdim etadilar. Moliya vazirligi va uning joylardagi organlari o'zlariga yuklatilgan nazorat funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni, buxgalteriya hisobotlarini talab qilib olishga haqli bo'ladilar.²⁴

Budgetlar ijrosini ta'minlashda asosiy hujjat bo'lib budget taqsimoti sanaladi. U tegishli davlat hokimiyati vakillik organi tomonidan tasdiqlanadi hamda unda budget daromad va xarajatlari batafsil ko'rsatib qo'yiladi.

Budgetlarning xarajat qismini ijro etish budget hisobidan muayyan mablag'larning ajratilishi bilan bog'liq bo'ladi. Budgetni ijro etish jarayonida uning hisobidan u yoki bu xarajatlarni qoplash maqsadida mablag' ajratilishi budget krediti deb yuritiladi. Budget krediti vazirliklar, idoralar, korxona, muassasa va

²³Шохин С.О., Воронина Л.И. Бюджетно-финансовый контроль и аудит. Теория и практика применения в России. Научно методическое пособие. М.: Финансы и статистика, 2002.- с.94.

²⁴ V.Sh. Nuritdinova, M.A. Sharapova. Moliyaviy nazorat.O'quv qo'llanma. 2014 y. 78-bet

tashkilotlarga ajratiladi. Budget krediti tegishli muassasa va tashkilot rahbari(kredit taqsimlovchi) ixtiyoriga kelib tushgandan so'ng ular o'zlariga ajratilgan mablag'lardan maqsadga muvofiq va tasdiqlangan smeta doirasida foydalanishlari lozim. Aks holda budget mablag'laridan foydalanish vaqtida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar uchun kredit taqsimlovchilar O'zbekiston Respublikasi qonunlariga ko'ra javob beradilar.

3-bob bo'yicha xulosa

Demak budget jarayonining tashkil etilishining xorij amaliyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, xususan Xitoy Xalq Respublikasining budget jarayoni O'zbekiston Respublikasini kabi 4 bosqichdan iborat. Bunda budget jarayoni bosqichlari budgetni soliq to'lovchilarning talablariga ko'ra ishlab chiqish, muhokama qilish, qabul qilish va auditdan o'tkazish hisoblanadi. Xitoy budget jarayonining ahamiyatli tomoni shundaki, budget loyihasi xalq bilan muloqat asosida ularning talablari asosida ishlab chiqiladi. Uning kamchiligi esa budget loyihasiga yil davomida kirgiziladigan o'zgartirishlar hisoblanadi, bu daromad va xarajatlar o'rtasidagi tafovutlarni keltirib chiqaradi.

AQSh budget jarayoni esa 5 bosqichni o'zida qamrab oladi. Bular:

- Prezident budget bayonnomasi;
- Budget qarorining qabul qilinishi;
- Muvofiq qonun loyihasini amalga oshirish;
- Loyihani ko'rib chiqish;
- Tatbiq etish.

Budget jarayoni ishtirokchilari Prezident, Kongres, parlament 12 subqo'mitalari va Senat hisoblanadi.

Budget jarayonini takomillashtirishda budget nazoratini samarali tashkil etish ahamiyatli masalalardan biri hisoblanadi. Budget jarayonida uning tamoyillariga to'la rioya qilinishi turli omillar va manfaatlar hisobga olingan holda iqtisodiy hayotda samarali boshqaruvni, bir maromdagi rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq markaziy va mahalliy davlat hokimiyati idoralarining barcha bo'g'inlari o'z budjetlarini tayyorlash va ijro etishda mustaqil bo'lsalarda, budjet loyihasini tayyorlash, ko'rib chiqish, tasdiqlash, qabul qilish va ijro etish masalalarini tartibga soluvchi protsessual huquqiy qoidalar, barcha budjet bo'g'inlari uchun umumiy bo'lgan tartiblar belgilab qo'yilgan.

Barcha darajadagi budjetlar ijrosi davlat hokimyat organlarining muntazam nazorati ostida bo'ladi. Budjet ijrosi ustidan nazorat olib borish tartibi va tashkiliy ko'rinishlari tegishli davlat hokimiyati organlari huquqiy aktlari bilan belgilanadi. Ijroiya hokimyat organlari korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda budjet ijrosining borishi ustidan nazorat olib boradilar.

Budjet jarayonida uning tamoyillariga to'la rioya qilinishi turli omillar va manfaatlar hisobga olingan holda iqtisodiy hayotda samarali boshqaruvni, bir maromdagi rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda davlat budjetidan moliyalashtiriladigan har bir tashkilot, korxona va muassalarning uzluksiz va samarali faoliyat olib borishi, ya'ni maktab, litsey va kollejlarda ta'lim olayotgan har bir talaba-o'quvchining sifatli bilim olishi, shifoxonalarda tibbiy muolajalarga muhtoj fuqaroning o'z vaqtida davolanishi ularning tegishli mablag'lar bilan o'z vaqtida ta'minlanishiga bog'liq ustuvor masaladir. Bu esa bevosita budjet jarayonini to'g'ri tashkil etilishi, unda ishtirok etuvchi davlat organlarining faoliyati ustidan qat'iy budjet nazoratini o'rnatilishi bilan bog'liq vazifalarning amalga oshirilishi bilan bog'liq deb hisobladik.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda davlat budjetining o'rnini uning mablag'laridan iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirishda foydalanish ko'lamlari, investitsiyalarni qo'shma moliyalashtirishdagi davlat budjetining xissasi, zararga ishlovchi ayrim korxona va tarmoqlarga beriladigan subsidiyalar hajmlari bilan izohlash ilmiy va nazariy jihatdan to'g'ri emas, albatta. Aslida davlat budjeti dastak va vositalaridan iqtisodiyot taraqqiyotining ildam o'sish sur'atlarini rag'batlantirish, modernizatsiya va tarkibiy qayta qurishlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, asoslangan va samarali moliyaviy va iqtisodiy imtiyozlar tizimini qo'llash, ijtimoiy sektorning samarali ishlashini ta'minlovchi zarur mablag'larni jamlash va ularni so'nggi ijobiy natijalarni ko'zlagan holda oqilona sarflashda foydalanish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning: "Albatta, Davlat byudjeti o'lchovsiz emas, mablag'larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatishni ta'minlash zarur. Bu – hammaga ravshan va rad etib bo'lmaydigan haqiqat"²⁵ - deb ta'kidlagan fikrlarida o'z ifodasini ko'rsatdi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishida amalga oshirilgan tahlillar natijalariga asoslangan holda quyidagi ilmiy xulosalarni va amaliy tavsiyalarni shakllantirishga muvaffaq bo'ldik:

-Budjet jarayoni-Davlat budjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek Davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun hujjatlari bilan tartibga solingan jarayoni

-Budjet jarayoni, odatda, budjet faoliyatining quyidagi to'rt bosqichini o'z ichiga oladi:

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. 16.01.2017-y. Xalq so'zi gazetasi.

- ✓ budget loyihasini tuzish (ishlab chiqish, yaratish);
- ✓ budgetni ko'rib chiqish (muhokama qilish) va tasdiqlash;
- ✓ budgetni ijro etish;
- ✓ budgetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash.

-O'zbekiston Respublikasi budget jarayonini takomillashtirishda respublikamizda bir qancha qonunlar tizimi ishlab chiqilgan.

- Budget jarayonida uning tamoyillariga to'la rioya qilinishi turli omillar va manfaatlar hisobga olingan holda iqtisodiy hayotda samarali boshqaruvni, bir maromdagi rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Budget jarayonining budget loyihasini ishlab chiqish, uni ijro etish asosiy va muhim bosqichi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq markaziy va mahalliy davlat hokimiyati idoralarining barcha bo'g'inlari o'z budgetlarini tayyorlash va ijro etishda mustaqil bo'lsalarda, budget loyihasini tayyorlash, ko'rib chiqish, tasdiqlash, qabul qilish va ijro etish masalalarini tartibga soluvchi protsessual huquqiy qoidalar, barcha budget bo'g'inlari uchun umumiy bo'lgan tartiblar belgilab qo'yilgan.

- Budget loyihasini tuzish va ijro etishda vakolatli davlat organlari jumladan Vazirlar Mahkamasi, Moliya Vazirligi, faoliyati muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi davlat budgeti ijrosini ta'minlaydi, respublika budgetini ijro etadi, Qoraqalpog'iston Respublikasi budgeti va mahalliy budgetlarning ijro etilishiga rahbarlik qiladi.

- Bugungi kunning eng rivojlangan iqtisodiyotiga ega bo'lgan AQSh va Xitoy Xalq Respublikasining budget jarayoni tahlili O'zbekiston Respublikasi budget jarayoniga o'xshash jihatlarini ko'rsatadi.

-Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida budget jarayonini tashkil etishda davlat budgeti nazoratini samarali tashkil etish budget daromadlari va xarajatlarini to'g'ri taqsimlanishini, mablag'larning maqsadli va rejali bajarilishini, o'z vaqtida yetkazilishini amalga oshirish imkoniyatlarini oshiradi.

-O'zbekiston Respublikasining davlat budgeti xarajatlari 2016-yilda 40 930 mlrd so'mni tashkil etdi. Ushbu mablag'ning yarmidan ko'pi ijtimoiy sohaga, 10

foizdan ziyodrog'i iqtisodiy xarajatlarga sarflanishi ushbu tarmoqlarning mamlakatimizda g'oyatda ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

-2016-yilda O'zbekiston Respublikasi daromadlari 410 030.7 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning 88.4 foizini solikli tushumlar, 11.6 foizini boshqa daromadlar tashkil etgan.

Qilingan xulosalar asosida bitiruv malakaviy ishi ob'ekti va predmeti bo'yicha quyidagi xulosalar berildi:

1. O'zbekiston Respublikasining budjet daromadlarinining asosiy qismi soliqlar evaziga shakllantirilishi barchamizga ma'lum, shunday ekan aholining soliq, moliya savodxonligini oshirish lozim. Har bir fuqaroning to'layotgan soliq mablag'lari xalq farovonligi uchun o'zlariga qaytib borishini anglab yetishi davlat budjetini shakllantirishda o'zining samarasini ko'rsatadi.

2. Davlat budjetining shakllantirilishi va ijro etilishida fuqarolarning ehtiyojlarini o'rganuvchi maxsus komissiyalar tashkil etilishi va soliq to'lovchilar uchun budjet jarayoni natijalarini kuzatish imkoniyatini yaratilishi, xususan budjet jarayoni ochiqligi (shaffofligi)ni ta'minlash maqsadida har chorakda yoki yarim yillikda budjet ijrosi yuzasidan erishilgan natijalalar haqida ma'lumot yetkazish, ya'ni xalqni xabardor etib borish budjet jarayonini samaradorligini oshirishning yo'llaridan biri deb hisobladik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2012 y..
2. O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RQ-360-son. 26.12.2013. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y. №52-I-son.
3. "Budget tizimi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RQ-361-son. 27.12.2013.
4. «Davlat budgetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 26.08.2004.
5. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni
6. "Budget tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabr 414-son Qarori (O'zR Vazirlar Mahkamasining 16.06.07 148-son qarori bilan tasdiqlangan yangi tahriri).
7. "Davlat budgetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori. PQ-594-son, 28.02.2007 y..
8. "O'zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budgeti parametrlari to'g'risida"gi Prezident qarori. PQ-2699-son. 27.12.2016.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 8 yanvardagi "Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizasiya qilish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-1257 sonli Qarori
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 23 noyabrdagi 553-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi to'g'risidagi Nizom"

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

11. Karimov I.A. 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" nomli ma'ruzasi. 2010 yil 29 yanvar.
12. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. –T.: O'zbekiston, 2008. T.16. – 365 b.
13. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009 y.
14. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. T.: O'zbekiston, 2009. – 24 b.
15. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: O'zbekiston, 1995. – 299 b.
16. Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish-bosh yo'limiz. – T.:Xalq so'zi, 2002-yil 15-fevral.
17. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston , 2016-56b.
18. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib- intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.-T.: O'zbekiston, 2017-104b.
19. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash –yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: O'zbekiston, 2017-48b.
20. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017-488b.

3.Darslik va o'quv adabiyotlari

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahonmoliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. Xodiyev va boshq. –

T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.

22. Vahobov A. V., Malikov T. S. Moliya: umumnazariy masalalar. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008 yil.

23. Vaxobov A.V., Srojiddinova Z.X. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti: O'quv qo'llanma. - T.: "Moliya-iqtisod", 2002

24. Vaxobov A.V., Srojiddinova Z.X. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti: O'quv qo'llanma. - T.: "Moliya-iqtisod", 2002

25. Vahobov A., Qosimova G., Jamolov X. Budget-soliq siyosati yaxlitligi: O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod-moliya. 2005.

26. Вахобов А. В., Сирожиддинова З.Х. Государственный бюджет: Учебник. Т.: «ИКТИСОД-МОЛИЯ», 2006

27. Malikov T.S., Haydarov N. H. Budget. O'quv qo'llanma. . T.: "Iqtisod-moliya", 2008 yil.

28. Malikov T. S., Haydarov N. H. Davlat budjeti. O'quv qo'llanma / Toshkent Moliya instituti. – T.: "IQTISOD–MOLIYA", 2007 yil.

29. Malikov T.S., Haydarov N.H. Budget daromadlari va xarajatlari. O'quv qo'llanma. . T.: "Iqtisod-moliya", 2007 yil

30. N.Haydarov. Davlat moliyasini boshqarish. T. "Akademiya", 2005.

31. T.S.Malikov, N.H.Xaydarov "Moliya: umumdavlat moliyasi" T: "IQTISOD-MOLIYA", 2009 yil

32. O. G'aybullayev, U. O'roqov. O'zbekiston Respublikasida budget tizimi va jarayoni. –T: "Baktria-Press", 2016 yil.

33. V. Sh. Nuritddinova, M. A. Sharapova. Moliyaviy nazorat. –T: "IQTISOD-MOLIYA", O'quv qo'llanma, 2014 yil.

34. E. Hojiyev, B. Artikov. Moliya huquqi. –T: O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi, 2012 yil.

35. Qosimova G.A. Ijtimoiy-madaniy sohalarni rivojlantirishda budget siyosati . - T.: Toshkent moliya instituti, 2004. - 152s

36. Qosimova G. G'aznachilik faoliyatini tashkil etish. O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod-moliya. 2005.
37. Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarish. O'quv qo'llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYa". 2008.
38. Шохин С.О., Воронина Л.И. Бюджетно-финансовый контрол и аудит. Теория и практика применения в России. М: Финансы и статистика, 2002-94с.
39. Shulian Deng, Jun Peng. Reforming budget process in China. OECD Journal on Budgeting. 2011.

4. Davriy nashrlar (gazeta va jurnallar)

40. Congressional Research Service, "Introduction to the Federal Budget Process". Report 90-721, 3 Dec. 2012.
41. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. №1, fevral, 2017 yil.
42. Budjet tashkilotlari xarajatlar smetalari ijrosining buxgalteriya hisobi. USAID/ZdravPlyus, Toshkent. 2004

5. Internet saytlari

43. <http://www.mf.uz> (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)
44. <http://www.gov.uz> (O'zbekiston Respublikasi hukumati portali)
45. <http://www.bfa.uz> (O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi)
46. <http://www.lex.uz>(normativ-huquqiy hujjatlar tizimi)
47. <http://www.stat.uz>(O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi)
48. <http://www.budgethouse.gov>(AQSH Federatsiyasi budjetni ijro etish bo'limi)